

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5141600-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh bitiruvchisi**

JO'RAEVA ZUXRAXON AKBARALI QIZINING
Bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: 1-SINF ODOBNOVA DARSLARIDA OILA HAQIDAGI
ASARLARNI O'RGATISH USHLARI**

Ilmiy rahbar:

M.Rahimova

Namangan – 2014 yil

MAVZU: 1-SINF ODOBNOVA DARSALARIDA OILA HAQIDAGI ASARLARNI O'RGATISH USLUBLARI

R E J A:

KIRISH

I bob. Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish masalalari:

- 1.1. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatishning ahamiyati.
- 1.2. O'quvchilarda turli fazilatlarni tarbiyalashda odobnoma darslarining o'rni va ahamiyati.
- 1.3. Inson hayotida tabiatning o'rni va ro'li

II bob. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish usullari

- 2.1. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish usublari.
- 2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini muomala madaniyatiga o'rgatishda mahalla, maktab va oila hamkorligi.

Tajriba-sinov ishlari

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida kabi ta'lim sohasida ham ko'plab o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlatimiz tomonidan chiqarilgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Davlat ta'lim standartlari" mamlakatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga berilayotgan e'tiborning yorqin ifodasidir. Prezidentimiz I.A.Karimov "Farzandlarimiz bizdan ko'ra aqlli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari kerak" degan fikrni aytar ekan, O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yoshlarni tarbiyalash, ularni komil inson qilib voyaga yetkazish Davlatimiz oldinga surayotgan ilg'or g'oyalardan biri ekanligiga amin bo'lasiz.

Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asarida":

Yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashda milliy tarbiya modulini yaratish, talaba–yoshlarda ma'naviy ta'minlanganlikni shakllantirish hamda inson manfaatlarining xalq, millat, davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unligini ta'minlashni, ma'naviyat insonning ulg'ayishi va kuch-qudrat manbai ekanligini, ma'naviy tiklanish hamda yuksalishda, albatta, mustaqillikning zarurligini, ma'naviyatimizga har qanday tahdid o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini, ushbu tahdidlarga qarshi kurashishga doimo hushyor turish zarurligini, ma'naviy barkamol, g'oyaviy kurashchan inson Vatanimiz taraqqiyotining poydevori ekanligini talabalarga tushuntirish lozim."¹

degan fikrlari orqali ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning eng asosiy omili bu milliylik va o'ziga xos yondashuv ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Bundan tashqari hukumatimiz va olib borilayotgan islohotlar natijasida nafaqat ta'lim-tarbiyani rivojlantirish yuzasidan ko'rsatmalar, balki moddiy jihatdan ta'minlash yuzasidan ham juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2010 yilda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni qurish,

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.-B.48.

rekonstruktsiya qilish va jihozlash, shuningdek, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish yakuniga yetkazildi. Umuman olganda, 2005-2010 yillar davomida 7 ming 800 dan ortiq umumta'lim muassasasi, qariyb 1 ming 500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi va rekonstruktsiya qilindi. Faqat 2010 yilda maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylarda 2 ming 300 tadan ziyod kompyuter texnikasi va mul'timedia uskunasi o'rnatildi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash va - bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirildi. Buning natijasida faqat 2010 yilning o'zida 72 ta sport inshooti, 27 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, umumiy qiymati 3 million AQSH dollariga teng bo'lgan sport inventarlari va uskunalar joylarga yetkazib berildi. Bugungi kunda umumta'lim maktablari o'quvchilarining har uch nafaridan biri turli sektsiya va to'garaklarda sport bilan muntazam shug'ullanmoqda. O'tgan yilda farzandlarimizning ijodiy qobiliyati va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan dasturni amalga oshirish boshlandi. Agar 2009 yilda oltita musiqa va san'at maktabi qurilgan va rekonstruktsiya qilingan bo'lsa, hisobot yilida 46 ta ana shunday maktab foydalanishga topshirildi. Ularning qurilishiga 51 milliard so'mdan ortiq kapital mablag' yo'naltirildi.¹ Bularning barchasi yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga, sog'lom va har tomonlama yetuk insonlarni voyaga yetkizishda naqadar yuksak e'tibor berilayotganidan dalolat berib turibdi. Ayniqsa boshqa mamlakatlar Jahon moliyaviy inqirozi ta'sirini o'z boshidan kechirayotgan bir davrda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarninig bu darajada rivojlanishi har biri mamlakatimiz fuqorosini o'z oldidagi burchini sidqidildan ado etishga va ushbu forovonlikka o'z hissasini qo'shishga undaydi. Bu borada prizidentimiz "Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararining darajasi va ko'lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank

¹ Karimov. I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi 23 yanvar' 2011 yil

tizimlarining nechogʻliq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bogʻliqligini isbotlashga hojat yoʻq, deb oʻylayman. Oʻzbekistonda qabul qilingan oʻziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz oʻz oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qoʻyar ekanmiz, eng avvalo, “shok terapiyasi” deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti oʻzini oʻzi tartibga soladi, degan oʻta joʻn va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik. Maʼmuriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga oʻtish jarayonida tadrijiy yondashuvni, “Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmagʻ” degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yoʻlini tanladik” fikrlarini taʼkidlash oʻrinli¹.

XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixida fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak surʼati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini taʼminladi. Xizmat koʻrsatish sohalarining paydo boʻlishi yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy maʼnaviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi oʻz navbatida ularni qisqa muddatda va sifatli qondirilishini taʼmin etuvchi faoliyatning yoʻlga qoʻyilishini taqozo etdi. Ijtimoiy zarurat mahsuli boʻlgan texnologiya sohasi va uni takomillashib borishi qisqa vaqt oraligʻida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi.

Bu borada ham Prezidentimiz “Ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yoʻlidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga koʻtarishimiz darkor”² ligini taʼkidlab, yaqin kelajakda amalga oshirilishi lozim boʻlgan eng muhim ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. Toshkent, 2009 yil mart

² Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12-noyabrda qoʻshma majlisidagi mavzusidagi maʼruzasi. "Oʻzbekiston ovozi" gazetasi. 220-son. 1-bet. T.: 2010 y.

Ushbu masalalarga e'tibor berilishidan maqsad mamlakatdagi har bir soha boshqa sohalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular biri- birini to'ldiradi hamda o'zaro rivojlanishiga ta'sir etadi. Shunday ekan, ta'lim tizimini rivojlantirish orqali fan va texnika yutuqlari asosida iqtisodiy sohalarni rivojlanishiga xissa qo'sha olishimiz mumkin bo'ladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugunga kunga kelib, ta'lim jarayonini o'ta qat'iy hamda murakkab talablari asosida yo'lga qo'yish zarurati kun tartibiga qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayoni mohiyatini to'laqonli anglay olgan, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta olish salohiyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassisni tayyorlash zaruriyati ta'lim jarayonini ham texnologik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini taqozo etmoqda.

Shu bois, ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir. Ayni vaqtda respublika ijtimoiy hayotiga keng ko'lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Ushbular ta'lim oldiga qo'yilgan muammoning bir tomoni bo'lib, ikkinchi tomondan ta'limning o'z ichidagi muammolar, ya'ni o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish, ularni har tomonlama puxta bilim egallashlariga erishish, erkin fikrlashga o'rgatish ham ta'limning eng dolzarb muammolari sifatida bugungi kun tartibida turibdi.

Hozirgi kunda texnika va axborot texnologiyasining rivojlanishi tufayli o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilish muammosi eng qiyin muammolardan bo'lib qolmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari va kompyuter o'yinlari o'quvchilar uchun qiziqarliroq bo'lib, o'ziga qattiq jalb qiluvchi omil sifatida ularni ta'lim-tarbiyadan birmuncha chetlatmoqda. Bunday holatda pedagoglarimiz oldida ta'lim jarayonini undan ham qiziqroq tarzda tashkil qilish muammosi turadi. Demak, biz ana shu zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o'tish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qila olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Qachonki ta'lim oluvchilar bilim olishga qiziqsalar, ular uchun bu jarayon zo'riqtiruvchi xarakterga ega bo'lmaydi va ular ta'lim olishdan zerikmaydilar. Pirovard natijada esa, o'quvchilar bilim sifati yuqori bo'lishiga erishish mumkin.

O'quvchilarga har tomonlama puxta bilim berish ta'lim oluvchilarni yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundagina ular barcha sohalarda faoliyat ko'rsatishlari, shu sohani rivojlantirishlari mumkin bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalar ichida pedagoglarimiz tomomnidan mukammal va qulay deb tan olinayotgan texnologiyalar bu interfaol ta'lim texnologiyalari bo'lib, bugungi kunda mutaxassislarimiz ushbu texnologiyalar asosida ko'plab usullarni ishlab chiqib ta'lim samaradorligiga erishmoqdalar. Interfaol usullar fan va texnikani rivojlanishini hisobga olgan holda zamonaviylikka asoslangan dars berish shaklidir. Interfaol usullar quyidagi xususiyatlari bilan ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- o'quvchilarga faqatgina tayyor bilimlar taqdim etilmasdan ularni izlanishga mustaqil fikrlashga undaydi

- o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib turli o'ynlar asosida olib boriladi

- aniq maqsadlar belgilab olinadi

- maqsadlarni amalga oshirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqiladi

- darslarda o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi yo'lga qo'yiladi

Ana shu tarzda afzalliklarga ega bo'lgan interfaol usullardan boshlang'ich sinf ona tili darslarida ham foydalanishning, ular asosida turli usullarni ishlab chiqishning dolzarbligi shundaki, o'quvchilar asosiy predmetlardan biri hisoblangan ona tili fani yuzasidan bilimlarni puxta o'zlashtirishlariga erishilib, kichik yoshdanoq erkin fikrlashga, o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini asoslashga o'rganadilar. Bunda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol usullarni ona tili fanlarining imkoniyatlari darajasida muvofiqlashtirish lozim bo'ladi. Interfaol usullarni to'g'ridan-to'g'ri boshlang'ich ta'lim jarayoniga va ona tili darslariga joriy qilish samarali natija bermaydi. Ularni soddalashtirish va qulaylashtirish orqaligina biz o'z maqsadimizga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etgan holda biz ta'lim sifatini yanada yaxshilashga erishishimiz mumkin. Bu bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan dolzarb mavzulardan biri bo'lib, endilikda barcha ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash masalasi yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda.

“Aql zakovatli yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalay olsakgina oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi,”-deydi prezidentimiz o'sha “Barkamol avlod orzusi” nomli kitobida shu bois, hozirgi kunda yoshlarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilanib, muayyan ishlar amalga oshirildi. Yoshlarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimiz va hukumatimizning yoshlarga nisbatan berilayotgan bunday g'amxo'rliklariga ular o'zlarining “a'lo” va “yaxshi” baholarga o'qishlari bilan javob berishlari lozim.¹

“Men Abdulla Avloniynig ”Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya –

¹ Karimov. . I.A “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 1999- yil. 81-bet.

ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi,”-degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining . “Barkamol avlod orzusi” nomli kitobida.¹

Pedagog kadrlar, yetuk mutahassislar tayyorlash, o'qituvchilar malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Darslarni yuqori saviyada o'tkazish, darsga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yangi-yangi dars uslublarini ishlab chiqish, noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish, o'qituvchilarning o'z ustlarida ishlab borishlari, zamon bilan hamnafas yashash, ishlash oliy ta'lim va o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari hamda o'rta umumta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim vazifaga aylandi.

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr — bu boshlang'ich sinf davridir. Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish, asosan, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan muallimlarga topshirib qo'yilgan edi.

Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarmokda.

Qabul qilinadigan dasturda boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, Darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyala-rini keng joriy etish masalalari o'z ifodasini topishi kerak.

Ayni paytda, "Sog'lom bola yili"-ning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, farzandlarimizda, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha aniq tadbirlarni belgilab, amalga oshirishimiz lozim.

¹ Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 1999- yil. 39-40-betlar

To'rtinchidan, hammamizga ayonki, farzandlarimizni, yangi avlodni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, bu maqsadga erishish, hech shubhasiz, davlatimiz, jamiyatimizning e'tibor markazida turishi, olib borayotgan siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi shart.

Shu maqsadda bu masalaga daxldor va mutasaddi bo'lgan qaysi soha, qaysi jarayonni olmaylik, ularning barchasini rivojlantirish, yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishda davlatning roli katta ekani hech kimga sir emas.

Shuni hisobga olgan holda, "Sog'lom bola yili" dasturi tarkibida, avvalo, yillik rejalarni belgilab olib, turli soha va tarmoqlar, ayniqsa, ijtimoiy sohalarga taalluqli masalalarni yechish uchun ajratiladigan mablag' bo'ladimi, bugungi kunda zamonning o'zi talab qilayotgan sharoitlarni tug'dirib berish bo'ladimi — bularning barchasiga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz zarurligi o'z-o'zidan ravshan, albatta.

Shu bilan birga, bu masala bo'yicha jahon miqyosidagi ilg'or, taraqqiy topgan davlatlarning tajribasini o'rganish va yurtimizda joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi¹.

Ma'lumki, Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, hamda eng asosi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi.

¹ Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so'zi, 2013-yil, 7-dekabr.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va irodaviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslari.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlar asos qilib olindi:

“Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari.;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim tizimi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida” 1998- yil 5- yanvardagi 5-son hamda “O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida” 1998- yil 13- maydagi 203-son qarorlari;

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi prinsiplarga tayangan holda ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

O'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;

Umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

Umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

Ta'lim mazmunining Respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

Umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga tayanish;

Pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan “Ta'lim to'g'risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonunlarida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining o'quv rejasi – Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazib, ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir soatda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat ta'lim standartiga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich (1-4-sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi.

Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

Prezidentimiz Islom Karimov uqtiradiki: «Har kim chuqur va mustahkam bilimsiz oldimizda turgan vazifalarni bajarish mumkin emasligini, ishda siljishga erishish mumkin emasligini aniq tushunmog'i darkor»¹

O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasbni egallashlariga qarab, Respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Kelajak yoshlarniki. Yoshlar faoliyati-faravon hayotimiz mezonidir. Huddi shu ma'noda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berish bugunning dolzarb masalasi sanaladi.

Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi- T., 2000.- B. 80.

voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz¹

Mustaqil Respublikamiz raxbariyati xalq ta'limi tizimini yanada yaxshilash borasida juda katta tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Bizning bitiruv malakaviy ishimiz "1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari"ga bag'ishlangan. Ushbu mavzuga oid nomzodlik va doktorlik ishlari tayyorlangan. Oliy o'quv yurti talabalari ushbu mavzuga oid ko'plab malakaviy ishlar tayyorlashgan. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchilarining Vatanga bo'lgan muhabbatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish, ularni milliy istiqlol va milliy g'urur ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda yashayotgan fuqarolarning dinidan, millatidan irqidan qat'iy nazar o'zaro bir-birlari bilan tinchtotuv, ahil-inoq yashashlari, insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatligi, qolaversa, insonning odob-ahloqi, xulq-atvori uning ziynati ekanligi kabi Prezidentimiz olg'a surayotgan g'oyalarning chuqur mazmun-mohiyatini singdirish, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga hozirgi zamon dunyo talablari asosida ta'lim va tarbiya berish, lug'at boyliklarini oshirib borish, erkin fikrlash, erkin so'zlash, mustaqil fikr ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, biz bugun o'z bitiruv malakaviy ishimizni "1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari"ga bag'ishlab, ushbu mavzuni mukammalroq ishlashni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Mavzuning ilmiyligi:

"1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari"ga bag'ishlangan ilmiy ishlar, ilmiy qo'llanmalar ko'plab yaratilgan bo'lsada, hozirgi zamon dunyo miqyosidagi ta'lim jarayoni ushbu mavzuga oid ilmiy izlanishlarni davom ettirishni, yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilikni, giyohvand moddalar iste'mol qilish va uni tarqatish kabi huquqbuzarliklarni oldini olish, qolaversa, o'quvchilarning Vatanga bo'lgan muhabbatlarini shakllantirish va uni

¹ 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining 2010 -yil 29- yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz- Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" ma'ruzasidan. . "O'zbekiston ovozi" gazetasi. T.: 2010 y.

rivojlantirish, ularni milliy istiqlol va milliy g'urur ruhida tarbiyalash, har tomonlama yetuk komil inson qilib tarbiyalash, shuningdek, o'quvchilarning lug'at boyliklarini oshirib borish, erkin fikrlash, erkin so'zlash, mustaqil fikr ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi masalalarni eng muhim vazifa deb qarashni taqozo etadi. Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida ushbu mavzuga oid hozirgacha yaratilgan ilmiy ishlarga, o'quv qo'llanma va maqolalarga, umumta'lim maktablarida uzoq yillardan buyon yoshlarga ta'lim va tarbiya berib kelayotgan tajribali pedagoglarning ilg'or tajribalariga hamda internet materiallariga suyardik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: "1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini o'rganib chiqish, tahlil qilish, samarali natijalar beruvchi usullarni tajribadan o'tkazish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

"1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari" nomli bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari aniqlab olish;
2. Odobnoma darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini o'rganish ;
3. O'zbek xalqining oila atalmish muqaddas tushunchasiga oid o'ziga xos xususiyatlari nimadan iboratligini aniqlash;
4. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rganish uslublarini tahlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishining obykti: Bitiruv malakaviy ishimiz Namangan shahridagi 27-sonli o'rta umumta'lim maktabining 1^A-sinfida tajribadan o'tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur umumta'lim maktabning 1^B-sinfini tanladik. Ma'lum bir muddat o'tgach, har ikkala sinf o'quvchilari bilim saviyasini solishtirib ko'rdik. Bu boradagi fikr-mulohazalarimizni, xulosalarimizni, "1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizning o'quvchilarni yuksak ma'naviyatli, odobli, axloqli qilib

tarbiyalashdagi hamda kelajagimiz bo'lmish yoshlarni komil inson qilib voyaga yetkazishdagi afzal tomonlari, ahamiyati va tajriba davomida erishgan yutuqlarimizni to'la yoritishga harakat qildik.

Malakaviy ishning tuzilishi: “1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, tajriba – sinov ishlari, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlardan iborat.

I bob. Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish masalalari

1.1. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatishning ahamiyati;

Boshlang'ich sinflarning odobnoma darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki, uning zaminida axloqiy-ta'limiy tarbiya asosi turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini odobnoma ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odobnoma darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan odobnoma ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va «Odobnoma» o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Odob va axloq qoidalari saboq sifatida bundan ming yillar avval ham katta e'tiborga molik bo'lgan. Hatto buyuk bobokalonlarimiz Imom Ismoil al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Najmiddin Kubrolar ham axloq va odob borasida yagona hisoblangan Hadis ilmini o'qish uchun o'z yurtidan chiqib Misr, Arabiston mamlakatlariga borib ilm olganlar. O'sha davrning muhaddislarini axtarib topganlar va ilm o'rganib, shogird bo'lganlar. Bu buyuk bobokalonlarimizdan tashqari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylar ham axloq-odob mavzuiga alohida e'tibor berib, «Tadbir al-manozil», «Qutadg'u bilig», «Mahbub ul-qulub», «Axloqi Muhsiniy» kabi asarlar yaratganlar.

Mustaqillik sharofati bilan axloq va odob ilmiga, ma'naviyat masalalariga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda.

«Ta'lim to'g'risida» Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida mustaqil yurtimizning barkamol shaxslarini yetishtirib berish vazifasi oldimizga qo'yilgan.

Xalqimizda «Bola boshidan, o'g'lon yoshidan» degan naql bor. Yoshlikdagi to'g'ri tarbiya inson kamolotini ta'minlaydi.

Mazkur hujjatlarni hayotga tatbiq etish maqsadida 1998-1999- o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining I—IV sinflarida tajriba sifatida «Odobnoma» fani davlat o'quv rejasi asosida o'qitiladigan bo'ldi. Shu munosabat bilan «Odobnoma» dasturi I—IV sinflar uchun mavjud dasturlar asosida, zamon talabiga mos ravishda yangidan qayta ishlab chiqildi.

«Odobnoma» fanining maqsad va vazifasi yosh avlod qalbiga odob-axloq me'yorlarini singdirishdan iborat.

Odob va axloq ilmi farzandlarimizda insof, adolat, iymon-e'tiqod, vijdon va mehr-muhabbat hislarini tarbiyalashga qaratilgandir. «Odobnoma» darslari o'quvchilarni xalqimizning unutilayozgan boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosi, so'z san'ati, xalq pedagogikasi va qadriyatlar bilan tanishtiradi. Bu noyob boylikning yoshlar tarbiyasida bosh mezon ekanligini uqtiradi, unga amal qilishga undaydi

Odamzodning minglab xislat-fazilatlarini ichra Odam ato va Momo havodan to hozirgacha yaxshiligi yomonlikning, ezguligi qabohatning hamma illatu ziynatlari yashab keladi. Inson go'zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid-niyatlar bilan komillikka, kamolotga intilib boradi. Odamning azizu mukarram bo'lishi unga berilgan – Aql bilan bog'liqdir. Zero aqlni olloh odamning eng tabarruk a'zosi- bosh miyaga mujassam etgani ham bejiz emas. Aqlli odamlar hammaga yoqimli bo'ladi. Aql bilan odob egizak. Shuning uchun aqli dononing odobi a'lo bo'ladi. «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» degan hikmatda katta ibrat bor. Odam o'zi ilm-zakovatli bo'lsa-yu, odobi kemptik ya'ni xunuk va qo'pollik kasb etsa, uni odam deyish qiyin. Dono xalqimiz nasl - mansabing, boyliging, xullas kim bo'lishingdan qat'iy nazar, «Avvalo inson bo'l» deb oqilona aytgan.

Insonga ziynat bag'ishlaydigan fazilat odob, axloqdir. Axloq ilmi-yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning komillikka erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir odam bir olam bo'lgani kabi, o'sha insonning odob-axloqi ham juda murakkab ikkinchi bir olam, desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning zohiriy va botiniy olamini, ayniqsa, qalb olamini o'rganish, bilish, tahlil etish g'oyatda qiyin, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Odobli komil insonda odamiylikning bir qator xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolatu diyonat, hayoyu iffat, zarofatu nazokat, vafoyu sadoqat, himmatu sahovat, fidoyu oqibat, izzatu hurmat, imon-e'tiqod kabilar mujassam topgan bo'ladi, ayni holda shu xislatlarning aksi beburd-axloqsiz kimsalar odobida ko'rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro' shuhrati kishilarning odob-axloqi, yaxshi xislat-fazilatlarini bilan belgilanadi, shu taxlit bahosini oladi. Qadimgi faylasuflaru donishmandlar odob-axloq jamiyatning poydevori deganlar. Bir quturgan buqa butun podani tarqatadi deganlaridek, axloqsiz, yolg'onchi, riyokor, hasadgo'y, muttaham, makkor shaxsning kasri mingga urib, jamiyatga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor beriladi. Yaxshining yomon bo'lishi oson, lekin yomonning yaxshisi bo'lish qiyin. Dunyoda odam bolasi yomonlik bilan yaxshilikning ostonasida turadiki, arzimas bir ichki yoki tashqi sabab bilan ostonadan chiqib yo yomonlik tomon, yo yaxshilik tomon ketishi mumkin. Odob-axloq ilmi va tadbirlari ana shu holatlarni o'rganadi, tahlil etadi va odamga yaxshi yo'lni ko'rsatadi.

Asrlar davomida axloq-odob mavzularida jild-jild kitoblar: hikmatnomalar, odobnomalar, pandnoma va nasihatnomalar, ibratli hikmat-u ibratlar yozilgan. Xalq og'zaki ijodining xazinalarida axloq-odobga doir bebaho durdona hikmat-ibrat javohirlari borki, ularni hisoblab hisobiga, ta'riflab ta'rifiga yetib bo'lmaydi.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob mashaqqatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham Aql ne'mati bilan yengadi va hal etadi, ruhiy kamolot odam qalbida axloq-odobning yuksak koshonasini yaratadi. Bunga uni odam ilmi chorlaydi.

Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idrok qilish, e'tiqod qo'yish, hayot tajribasini egallash bilan bo'ladi. YOSH niholning barvasta daraxtga aylanishi parvarishiga bog'liq bo'lganidek, odam bolasi komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'aklikdan axloq-odob ilmidan bahramand etib borish lozim. Ota-onalar va kattalar yoshlarning kelajak baxt-saodatini va ularning yetuk inson bo'lishidan faxr-g'urur lazzatini surmoqchi bo'lsalar, bolalik chog'idan aql-zakovatining o'sishiga alohida diqqat-e'tibor qilishlari kerak.

O'zbek xalqi asriy orzusiga erishdi, mamlakatimiz Mustaqillik degan buyuk erkinlikni qo'lga kiritdi.

Yangi jamiyat barpo etar ekanmiz, yangicha tafakkurli kishilar shu jamiyatni olg'a boshlovchi kuchga aylanadi. Bunday ilg'or insonlarni yetkazishda madaniyat, maorif, umuman ma'naviyat muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi paytda O'zbekistonimiz Prezidenti Islom Karimov mafkura—ma'naviyatimizni birinchi o'ringa qo'yib, ayniqsa yosh avlodni komil insonlar qilib yetkazishga alohida e'tiborni qaratmoqda. Ma'lumki, yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida uning xulq-odobi asosiy mezondir. Odobli insonlar ko'p bo'lgan jamiyat gurkirab o'sadi va xalqi to'liq farovonlikka erishadi.

Inson yashar ekan, faqat yeb-ichish, yaxshi kiyinish, farovon turmush kechirish bilangina hayot kechirolmaydi, unga ma'naviy-madaniy oziq kerak. Bu ilm-fan, aql-zakovat, san'at-adabiyot, kasb-hunar, himmat-ibrat dan iborat bo'lishi kerak. Ana shunda har tomonlama odobli, komil insonlar yetishadi. Bunday xalqning shuhrati dunyoga taralib, mamlakat chinakam buyuk davlat bo'ladi.

Xo'sh, odobli inson deganda qanday xislat-fazilatli odamlarni tushunamiz? Odob insonning tabiati bilan bog'liq bo'lib, u o'zaro aloqa-munosabatda shakllanadi. Ma'lumki, odam yolg'iz o'zi yashay olmaydi, kimsasiz orolga tushib qolgan odam amal-taqal umr kechirishi mumkindir, lekin uning hayoti insonlarcha yashash bo'lmaydi.

Demak, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala-munosabatda bo'ladi, u o'sha jamiyatdagi odamlarning axloq-odobi ko'zgasida yashaydi, unga ko'nikadi. Husni odobning sohiblarini hamma yaxshi ko'radi.

Axloq-odobning ma'lum bir qoidasini hamma uchun bir qolipda tavsiya etib bo'lmaydi. Har bir odam ichki va tashqi olami bilan bir-biridan ranglar kabi farq qiladiki, komil insondagina hamma yaxshi fazilatlar mujassam bo'ladi.

Biz 1- sinf «Odobnoma» darslarida inson fazilatining gultojisi hisoblangan ko'pgina xislatlarni o'rganib chiqdik. Bular quyidagilar: shirin muomala, kamtarlik, ota-onaga va kattalarga xurmat-izzat, yaxshilarga tahassuf qilib, ulardan ibrat olish, el-yurtga fidoiylik, kasb-hunar va uy-ro'zg'or yumushlarini egallash va uddalash kabilardan iborat bo'ladi.

3-4-sinflarda o'tiladigan «Odob» darslari o'quvchilarning axloq-odob haqidagi tushuncha, tasavvurlarini kengaytirib, odobning serjilva tomonlariga e'tiborni tortadi.

Dunyoda har bir kimsani odamiy bo'lishga da'vat etuvchi «Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l», «Qari bor uyning zari bor», «Arslon izidan, yigit so'zidan», «Qiz bola onaning malhami—joni», «Hunar—hunardan unar», «Beshikdan tobutgacha ilm izla» kabi hikmatona mavzularda odam faqat o'z manfaati, maishati, huzur-halovatini ko'zlaydigan xudbin bo'lmasligi, men palonchining o'g'liman (qiziman) deya obro'li otasi bilan mag'rurlanmasligi, balki o'zining hayoti davomida chin odamiyligi, boshqalarga qiladigan yaxshiligi: xush xulqi, yaxshi fe'l-atvori, shirin so'zi, olijanob fazilatlarini bilan amalda o'zini ko'rsatsin, degan mazmun yotadi. Shuningdek, ota-ona va qariyalarni hurmat qilish, ular misoli sharqirab oqib turgan bir daryoki, odob-ibratlaridan doim bahramand bo'lish kerakligi uqtiriladi. Qiz va o'g'il bola odobi, yigit g'ururi, qiz sha'ni, ilm-hunar egallash, o'zini mehnatda chiniqtirish, yaxshi udum, rasm-rusumlarga amal qilib, o'tganlar ruhini shod etish, nafsni tiyish, kishini badnom qiladigan ishlardan qochish, savob va xayrli ishlarga qo'l urish, iymon-e'tiqodli bo'lish kabilarga da'vat etiladi.

1- sinf odobnoma darslarida 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rganishning ahamiyati nihoyatda beqiyos. Chunki biz ushbu mavzuni o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining quyidagi xususiyatlarini rivojlantirishga erishishimiz mumkin:

- Odobli inson bo'lib yetishish;
- Axloqiy jihatdan komil inson bo'lib voyaga yetishlik;
- Mehnatsevarlik;
- Kamtarlik;
- Rostgo'ylik;
- To'g'ri so'zlik;
- Vijdonlilik;
- Oq ko'ngillik;
- Sahiylik;
- Xushmuomalalik;
- Qalbi kenglik;
- Mehribonlik;
- Jonkuyarlik;
- Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishlik;
- Har qanday holatda o'zini tuta olishlik;
- Vatanparvarlik;
- Vatan ravnaqiga munosib xissa qo'sha olishlik;
- Vatan koriga yarashlik;
- Xalqparvarlik;
- Tinchliksevarlik kabi inson ziynati bo'lmish eng oliy fazilatlarni

shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish mumkin.

1.2.O'quvchilarda turli fazilatlarni tarbiyalashda odobnoma darslarining o'rni va ahamiyati.

Ajdodlarimiz odob muammosini hal qilishda har bir xalqning milliy merosi va qadriyatlarini o'rganib, uni umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tardilar.

Shuning uchun yosh avlodga odob o'rgatish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida turli yo'nalishlarda tavsiyalar, pand-nasihatlar, munojotlar orqali xalq orzu-umidiga yangi-yangi izlanishlar bilan kirib kelgan. Xalq yaratgan afsona, ertak, maqol, rivoyat, hikoyat, yozma yodgorliklar-bitiklardagi bosh masala — «yaxshilik» va «yomonlik» g'oyalari farqlashdir. Pandnomalar — «Turkiy

shohnoma», «Avesto», «To'tinoma», «Hotamnoma», «Qobusno-ma», «Bozornoma» kabilarda xalqning ezgu orzu-umidlari aks ettirilgan. Xalqning boy merosini o'rganib, odob va axloq haqidagi g'oyalarni tavsiflab bir majmuaga mujassamlashtirgan mutafakkir, ma'rifatparvar, mashoyix, hadisshunos olimlar o'z asarlarida uni yanada takomilhashtirganlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, odob-axloq borasidagi tushunchalar insoniyat tarixida quyidagi qonuniy taraqqiyotga ega. Odoblilikka doir tushunchalarni abadiy o'sib borishi: iymon, e'tiqod, Vatanni sevmak, sabr-bardosh, yo salbiy yoki ijobiy ko'rinishda bo'lishi-dan qat'i nazar shaklan o'zgarmasligi, lekin mazmunan rivojlanuvchi xarakter kasb etishi. Xalq hikmatlarida:

Agar odobli bo'lsang ey sarafroz, Ki izzatda bo'lursan qish bilan yoz.

Bu hikmatda odob insonning umr bo'yi hamrohi ekanligi ko'rsatiladi. Odob haqidagi g'oyalarning ma'nosi kengaytirilgan holda mutafakkirlarning asarlarida ifodasini topgan. Imom Taqoviyning «Aqoid», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Abu Ali ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Navoiyning «Mahbubul qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», shu bilan birga Faxriddin Akbarzodaning «Ta'limi soniy», Qori Sharif Ahmad-ning «Muallimi din» (1934 y.) kabi asarlari odob darsliklari sifatida maktablarda o'rganilgan.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari ko'p jihatdan Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asariga ta'xalub qilingani uchun Avloniy «bo'ston» so'zini tashlab, asarini «Turkiy guliston» bo'lsin degan edi.

Markaziy Osiyo mashoyix, olim-avhyolari ijodiyotida bosh g'oya sifatida odob-axloqning nufuzi deb, «nafsni tiyish», «qo'lni haromga urmaslik», «oz e, oz ich, oz so'zla» yoki «diling Oллоhda, qo'ling mehnatda bo'lsin» kabi shiorlarni olg'a surdilar. Ular Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ij-duvoniy, Orifxonlardir.

Hadisshunos olimlar al-Buxoriy, at-Termiziy payg'ambarimiz hadislarini tahlil qilib «Ishonchli to'plam», — «Jome' as-Sahih»ni yaratdilar. Muhammad SAV ni «Ummatlarimga yetkazish uchun kimki sunnatimga oid 40 ta hadisni yod

olsa, men ul odamni qiyomat kuni shafloatinga olurman» degan so'zlari bor. Payg'ambar murojaatiga javoban mutafakkir Alisher Navoiy «Arbain» asarida 40 hadisni nazm ila bayon etgan edilar.

Yuqoridagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan meros va milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimizni tashkil etadi. Ma'naviyat yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, rahiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujas-samlashtiruvchi tushuncha yoki dunyoda ma'no izlagan kishi ma'naviyat sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi. Shu sababli I. Karimov «Istiqlol va ma'naviyat*» asarida yoshlarni tarbiyalashning uch omilini ko'rsatadi:

- umuminsoniy qadriyatlar;
- islom ta'Umoti;
- o'zbek milliy urf-odatlari.

Ma'naviyati sog'lom msonning komilligi uning o'ziga ko'p jihatdan bog'liqdir.

1. Odob-axloq tushunchalarini har bir maqol, ertak, hikoyat, rivoyatlarda uchratish mumkin. Lekin qiyomat kuni shafloatinga olurman» degan so'zlari bor. Payg'ambar murojaatiga javoban mutafakkir Alisher Navoiy «Arbain» asarida 40 hadisni nazm ila bayon etgan edilar.

Yuqoridagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan meros va milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimizni tashkil etadi. Ma'naviyat yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, rahiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujas-samlashtiruvchi tushuncha yoki dunyoda ma'no izlagan kishi ma'naviyat sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi. Shu sababli I. Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» asarida yoshlarni tarbiyalashning uch omilini ko'rsatadi:

- umuminsoniy qadriyatlar;
- islom ta'hmoti;
- o'zbek milliy urf-odatlari.

2. Pandnomalarda — «Avesto», «Hotamnoma», «Qobusnoma», «Guliston», «Bo'ston», «Turkiy shohnoma», «Saodatnoma», «Kalila va Dimna»larda axloq-odob bilan mashhur qahramonlar misolida yoki pand-nasihati tariqasida bayon etib, xalq og'zaki ijodiyotidan ancha yuksakligi bilan farq qiladi.

3. Pedagogik qadriyatlarda, mutafakkir va ma'rifat-parvar olimlarning asarlarida odob-axloq g'oyalari ma'lum ilmiy ta'rif berish bilan boyitilgan.
4. Badiiy asarlar, ertak, afsona, qissa va dostonlarni o'qib tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, undagi mehr, vafo, ishonch, iltijo kabi tushunchalar mavjud.

Mehrsiz oila har qanday badxulq (yomon xulq) ishlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladilar.

1. Bolalarini o'z holiga qo'yib, ulardan uzoq yashochi ota-onalar.
2. Bolalarini mehribonlik uylariga topshirganlar.
3. Bolani kamsitib, uning qalbi va g'ururini mensimaydigan oilada mehr-oqibat haqida gap bo'lishi qiyin albatta.
4. Ota-onaning har bir ishini minnat qilishi odobsizlik hisoblanadi.

Har qanday jinoiy ishlarga qo'l uruvchilar ota-ona mehridan bahra olmaganlardan ko'proq chiqishini hayot ko'rsatmoqda. Imom al-Buxoriy aytadilarki: «Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin».

Komil farzand uchun ham ota-ona mehri zarur. Qarindosh-urug'ing senga ming g'amxo'rlik qilganda ham, ularning urnini bosa olmaydi. Ayrimlar otaona va qarindoshlari qo'zi tirik paytida bemehr bo'la-dilar. Ota-onaning qadri va mehri ko'proq ular olamdan o'tganda bilinadi.

Bir qalandar shunday kuylagan ekan:

Otasi bor, onasi bor, Bozor boshida o'ynaydi.

Otasi yo'q, onasi yo'q, Mozor boshida yig'laydi.

Oilaviy hayotda inson barkamolligiga nima foyda, nima zarar ekanligi ham milliy meros-qadriyatlari-mizda alohida o'rin egallagan.

Faxriddin Rasul o'zining «Axloqnoma» asarida «Boylik, uni asrash va sarflash» haqida yozar ekan odamlarni 3 guruhga bo'lgan: xasis-baxillar, maqtan-choq saxiylar, haqiqiy saxiylar.

1. Xasis-baxillar. Hech kimga ravo ko'rmay mol yig'ishadi. O'zlarini g'arib va muhtoj odamlar deb ko'rsatadilar. Xalqimiz yaratgan axloq-odob qoidasiga to'g'ri

kelmas shu sabab, bunday oila boshliqlarini xasis, ochko'z, qurumsoq yoki «non emas» deb ataganlar.

2. Maqtanchoq sahiylar. Uy-ro'zg'ori tang, oila a'zolari qiynalayotganini bila turib jamoat orasida manmanlik bilan o'zini ko'rsatadi. Bu holat ham sharoitga to'g'ri kelmaydi. Bunday oila boshliqlarini maqtanchoq saxiylar deyiladi.

3. Haqiqiy sahiylar. Uy-ro'zg'ori butun, oilani to'liq moddiy va ma'naviy ta'minlagan, topgani reja bilan sarflanadigan, qarindosh-urug'lariga yordam beradigan, g'ariby muhtojlarni o'z himoyasiga oladigan oila boshliqlari haqiqiy saxovat egalaridir.

Milliy axloq-odob va qadriyatlarimizda uchray-digan «yaxshi» yoki «yomon» xislatlarning mohiyati va mazmunini erta yoshdan boshlab bolalarga singdirishga ota-ona, qo'ni-qo'shni, mahalla mas'ul bo'lishi lozim. Xalqimizning: «Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona», deyilgan maqoliga amal qilish kerak.

Milliy axloq-odob va qadriyatlardagi yaxshi udum-lardan biri oilada ota-onaga cheksiz hurmatdir.

Aslida, ota uyi, ota vatani bo'lishi kerak. Chunki ayol palaxmon tosh kabi ota vataniga boradi, lekin ona aziz-mo'tabar bo'lgani uchun ona, Vatan — ona diyor deb ulug'lanadi. Milliy axloq-odobda otalarni oilada adolatli bo'lishligiga alohida e'tibor berilgan.

Otaning adolatU bo'lishi oiladagi odobning ustuni, insoniylikning asosi hisoblanadi. Adolat — insof eshik-larini odamlarga ochib beradi. Ayniqsa, otaning adolat yuzasidan ish ko'rishi muhim hisoblanadi. Qadim zamonda bir bola qozi otasiga «ustozim meni jazoladi» deb yig'lay boshlabdi. Ota surishtirmay, ustozni jazoladi. Farzand bu holatni ko'rib, otani adolatsiz-ligidan nafrat qilish o'rniga, «otam bor ekan, nima ish qilsam qilaveraman» deb o'ylaydi. «Adolatsiz otadan adolatsiz farzand», degan dono so'z bejiz emas, albatta.

Axloq-odob va qadriyatlarda farzand burchi, ota-ona mehriga loyiq bo'lishi alohida o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun qanchalar shirin va aziz bo'lsa, ota-ona ham bolaga shunchalik aziz va shirin bo'lishi kerak.

Xalqimiz aytganidek: «Nag kim ekanini o'radi». Ota-onaga nima qilsang, bola-chaqangdan qaytadi.

Xalq milliy axloq-odobida farzand burchidagi bosh g'oya ota-onani g'animat bilish.

1. Odob va axloqqa doir tushunchalarning ildizlari insonning irsiy rivojlanishi bilan bog'lanishi, hayotiy tajribalarning nazarda tutilishi.

2. Odob-axloqning mohiyati, maqsadi bolalar qalbida ishonch hosil qilishga qaratilishi, ya'ni bola aqli, qo'li bilan nimaiki qilmasin, uning zamirida, ongida fikr, tushuncha, bilim, iste'dod, qobiliyat sifatida shakllanadi.

3. Odob-axloqni tarbiyalashda bolalarning jamoa-dagi munosabati hamjihatlik va qayg'uruvchanlik holatlariga asoslangan bo'lishi.

4. Odob-axloqiy tushunchalarni uzluksiz rivojlantirish.

5. Odobga oid fazilatlarni o'quv-tarbiya jarayonining har bir bosqichida rivojlantirish. G'oyalarning uzviy rivojlanishiga e'tibor berish.

6. O'qituvchi, ota-ona va jamoat talab va ta'sirchanligining birligi.

Odobnoma dasturida berilgan mavzularni bolalar qalbiga yetkazish ko'p jihatdan o'qitishning yangi pedagogik texnologiyasiga bog'liq.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'limning tuzilishi, bosqichlari, mazmuni, o'quv reja, dastur va darsliklari davr talabiga moslashtirildi.

O'qituvchi har bir mavzuni o'tishda tarbiyaviy ahamiyatga ega Qur'oni Karim oyatlari, Hadisi Sharif namunalari, hikoyat va rivoyatlar, maqollar, hikmatlar, masallardan, Imom al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad», Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Odob as-salihin», Voiz Koshifiyning «Javohirnoma», «Axloqi Muhsiniy», Sa'diy Sheroziyning «Guliston», «Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbubul qulib», «Hayratul abror», Umar Hayyomning «Navro'znoma» hamda Abdulla Avloniy, Fitrat va Cho'lpon asarlariga muro-jaat qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

1—4-sinflarda odobnoma darslarini o'tishda pandu nasihatlar bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Mash-g'ulotlar qiziqarli, sermazmun, zamon talabiga mos bo'lishi lozim. Dars jarayonida xalqimiz turmushidagi axloq-odob qoidalariga to'g'ri amal qilib kelayotgan oilalar hayoti bilan tanishtirish, mehnat va urush faxriylari, kasb-hunar ustalari, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish va amahy mashg'ulot sifatida muzeylarga, tabiat qo'yniga sayru sayohatga borish ham maqsadga muvofiqdir. Mazkur fan mashg'u-lotlarini turmushning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, oilalik, bola tarbiyasida ibratli tajribaga ega bo'lgan muallimlarga yuklash lozim.

Hech shubha yo'qki, ayniqsa 1—4-sinf o'quvchilari ertaksevardirlar. Ular ertak qahramonlariday ziyrak, topqir, mard bo'lishga intiladi. Shuning uchun odobnoma darslarida kundalik va oylik respublika gazeta-jurnallari — «Tong yulduzi», «Sirli olam», «G'uncha», «Sinf-dosh», «Yosh kuch», «Sog'lom avlod uchun», «Saodat»dagi xalq og'zaki ijodi sarchashmalari turkumi ostida chop etilayotgan materiallardan, «Odobnoma», «Ma'rifatnoma» turkumidagi radioeshittirish va teleko'rsatuvlardan foydalanish lozim. 1—4-sinf bolalariga «Bor ekan, yo'q ekan», «Oqshom ertaklari», «Ertaklar yaaxshilikka yetaklar», «Kamalak» kabi eshittirish va ko'rsatuvlar zamirida donishmandlik, yuksak axloq-odob, ma'naviyat yotganini bot-bot uqtirish kerak.

O'qituvchi axloq-odobga doir mavzularda mashg'ulot o'tkazganda, bola tarbiyasiga xos sharqona odatlar, rasm-rusumlar, naqlarga batafsil to'xtaydi. Bu haqda bitilgan hikmat va rivoyatlardan o'qib beradi. Qiz bolaga mayinlik, uyat-andisha, or-nomuslik, tortinchoqlik, pokizalik, did-farosatlilik, sarishtalik, hushyorlik, chaqqon-lobarlik, orastalik, ota-ona, aka-uka, qarindosh-urug'larga mehr-shafqatlilik, sabr-qanoatlilik fazilatlarini munosibligi takror-takror uqtiriladi. O'z galida o'g'il bolalarga to'g'ri so'zlilik, mardlik, bag'ri-kenglik, saxiylik kabi fazilatlar hayotiy misollar bilan tushuntirilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Odobnoma ilmini 1-sinfdan boshlab o'rgatishdan ko'zda tutilgan maqsad, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy an'analar, urf-odatlarini bilgan holda, ruhini

pokiza saqlash, ota-onadan mamnun bo'lish va ularni hurmat qilish, tabiatni sevish, ustozni ulug'lash, milliy g'ururimizni himoyalash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

«Odobnoma» dasturida berilgan mavzularni bola qalbiga yetkazishning ta'sirchanligini oshirish uchun darsda radio, tele vizor, videofilm va ko'rgazmali qurollardan, mavzuga mos she'r, qo'shiqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Darsni esa savol-javob, ertalik ko'rinishida, sahnalashtirib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki qolipsiz o'tiladigan darslar, o'yin, suhbat shaklidagi darslar bolalar uchun qiziqarlidir. Bunday darslarda o'quvchilarning o'zlari bevosita qatnashadilar.

Bu qo'llanmada ana shunday darslarning taxminiy ishlanmalari berildi.

Maktabga ilk qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchisining odob va axloqi qanday bo'lishligiga alohida ahamiyat berildi.

Odobnoma fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarga axloq va odobga doir quyidagi bilim, qo'nikma va malakalar shakllantiriladi:

— umuminsoniy qadriyatlar va milliy merosimiz asosida xalq va ajdodlarimiz yaratgan «nima yaxshi, nima yomon»hgi haqida bilimga ega bo'ladi;

— sharqona odob-axloqqa doir fazilatlar maz-muni, mohiyati va ularning hayotiy zaruriyati haqidagi tushunchalarning uzviy rivojlanishi o'quvchi e'tiqodiga aylanib boradi;

— odob-axloqqa doir bilimlar O'zbekiston Res-publikasi mustaqilligi va milliy istiqlol g'oyasi bilan uyg'unlashtirilib, hosil bo'lgan tushuncha va bilimlar mustahkamlanadi;

— o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish odobi, ma-daniyati haqidagi tushunchalar mustaqil fikrlash orqali rivojlantiriladi;

— odobnoma ilmi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish uchun dastlabki axloq-odobga doir tushunchalarni bolaning qalbiga yetkazishda uzviylik tizimiga amal qilish;

— ahloq-odobga doir bilimlarni bolaning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

— o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan ijobiy fazilatlardan g'ururlanish, mamnunlik hissiyotini tarbiyalash;

— badxulqlik — yomon odatdan nafratlanish va undan uzoqlashish kerakligini takror anglatish;

— o'quvchining kundalik faoliyatida o'z xatti-harakatlarini baholay olishga o'rgatish ko'zda tutiladi.

1.4. Inson hayotida tabiatning o'рни va ro'li

Ob-havo omillari har biri ayrim holda yoki bir nechasi birlikda insonning mehnat qilish qobiliyatiga, sog'lig'iga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish sharoitida ob-havo omillarining deyarli hammasi bir vaqtda ta'sir qiladi. Ba'zi sharoitlarda bunday ta'sir ko'rsatish foydali bo'lishi, masalan sovuq sharoitda quritish natijasida kamaytirilishi mumkin, ba'zi vaqtlarda esa, bir-biriga qo'shilishi natijasida zararli ta'sir darajasi ortib ketishi mumkin, masalan nisbiy namlik va haroratning ortib ketishi inson uchun og'ir sharoit vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ish joylaridagi havo harakatini oshirish harorat yuqori bo'lgan vaqtda ijobiy natija beradi, harorat past bo'lgan vaqtda esa, salbiy natija beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ob-havo omillari ba'zi bir hollarda inson uchun ijobiy va ba'zi bir hollarda esa, salbiy ta'sir ko'rsatib, inson organizmi tashqi muhitga moslashuvini buzib yuborishi mumkin. Tashqi muhitga moslashuv – bu inson organizmining fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida tana haroratining bir xil chegarada ($36-37^{\circ}\text{C}$) saqlab turish qobiliyati demakdir.

Ob-havo sharoitining doimo o'zgarib turishi tana haroratining o'zgarmasligini saqlash, inson hayotining asosi bo'lgan organizmdagi biokimyoviy jarayonlarning me'yoriy sharoitini ta'minlaydi. Tana haroratining yuqorida ko'rsatilgan darajadan ortib ketishi issiqlash, sovishi esa, sovish deb ataladi. Issiqlash va sovish hayot faoliyatini buzuvchi halokatli holat vujudga keltirishi mumkin.

Shuning uchun ham inson organizmida tashqi muhit bilan moslashuvi fiziologik mexanizmi mavjud bo'lib, u markaziy nerv sistemasining nazorati ostida bo'ladi. Bu fiziologik mexanizmning asosiy vazifasi organizmda modda almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik balansini saqlab turishdir. Tashqi muhitga moslashuv ikki xil:

fizik va kimyoviy bo`lishi mumkin. Kimyoviy tashqi muhitga moslashuv organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovishi natijasida modda almashinuvini oshirishi mumkin. Ammo kimyoviy tashqi muhitga moslashuv tashqi muhitning keskin o`zgartirishi borasida fizik tashqi muhitga moslashuvga nisbatan ahamiyati katta emas. Asosan tashqi muhitga issiqlikni almashtirishga fizik tashqi muhitga moslashuvning ahamiyati katta.

2. Ishlab chiqarish mikroiklimi me'yorlari mehnat xavfsizligi standartlari sistemasi «Ish zonasi mikroiklimi» bilan asosan belgilangan. Ular gigienik va texnik iqtisodiy negilariga asoslangan.

Sanoat korxonalarini xonalrining harakteri, yil fasllari va ish kategoriyasiga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan me'yorlari belgilangan.

Ish kategoriyalari quyidagicha belgilanadi: engil jismoniy ishlar (I-kategoriya)-o`tirib, tik turib yoki yurish bilan bog`liq holda bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo`riqish yoki yuklarni ko`tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik korxonasi, aniq asbobsozlik va shu kabi korxonalar kiradi.

O`rtacha og`irlikdagi jismoniy ishlar (II-kategoriya)-soatiga 150-250 kkal (172-293 j.s) eenergiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og`ir bo`lmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bog`liq bo`lgan ishlar kiradi. Masalan, yigiruv-to`qish ishlari, mexanik-yig`uv, payvandlash sexlaridagi ishlar shular jumlasidandir.

Og`ir jismoniy ishlar (III-kategoriya)-muntazam jismoniy zo`riqish, xususan og`ir yuklarni (10 kg dan ortiq) muttasil bir joydan ikkinchi joyga ko`chirish va ko`tarish bilan bog`liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250 kkal (293 js)dan yuqori bo`ladi. Bunday ishlar temirchilik, quyuv va boshqa qator sexlarda bajariladi.

Harorat nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan miqdorlar ko`rinishida me'yorlanadi. Risoladagi miqdorlar deganda odamda uzoq muddat va muntazam ta'sir qilganda tashqi

muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning me'yor faoliyatini va issiqlik holatini saqlashini ta'minlaydigan mikroiklim ko'rsatkichlarining yig'indisi tushunilib, ular issiqlik sezish mo'tadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini yuksaldirish uchun shart-sharoit hisoblanadi. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mikroiklim sharoitlari organizmning faoliyatini va issiqlik holatdagi o'zgarishlarini, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reaksiyalarining kuchaytirishini bartaraf etadigan va tez me'yorga soladigan mikroiklim ko'rsatkichlarining yig'indisidir. Bunda sog'liq uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomotadil issiqlik sezgilari, kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

3. Sanoat korxonalarida mashina va mexanizmlarning harakat natijasida har xil titrashlar vujudga keladi. Bu titrashlar ba'zi uchastkalarda bitta va ba'zi uchastkalarda bir necha mashina mexanizmlarning harakati ta'sirida bo'lib, ba'zan zo'rayishi va ba'zan susayishi kuzatiladi va bu organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Texnika taraqqiyoti natijasida zamonaviy mexanika-mashinasozlik korxonalarida turli tuman jihozlarning kirib kelishi, shuningdek bu mashinalarning unumdorligini oshirishga talabning kuchayganligi, mashinalarning iloji boricha kam material sarflab, yo'l bilan bajariladigan vazifalarni mexanizmlar zimmasiga yuklash natijalari insonga ta'sir etuvchi qo'shimcha hodisa, titrash hodisasini kelib chiqishiga olib keldi. Titrash sanoatda ishchining ish unumdorligini kamaytiribgina qolmasdan, balki uning sog'ligiga ham ta'sir ko'rsatishi va bu ta'sirning oldi vaqtliroq olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib kelishi aniqlandi. Shuning uchun ham titrashga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega.

Titrashning fizik xususiyatlari. «Titrash: atamalar va tushunchalar» da «titrash» deb nuqta yoki mexanik sistemaning, xech bo'lmaganda bitta koordinat bo'ylab, vaqt birligida navbatma-navbat ortib va kamayib turuvchi harakatiga aytiladi.

Titrash mashina va mexanizm qismlaridagi kuchlarning nomuvofiqlik harakati natijasida kelib chiqadi. Bunga mexanizmlarning chiziqli harakatini aylanma haraktga aylantirishdagi krivoship-shatun mexanizmalirining harakati, silkituvchi harakat hosil qiluvchi shibbalash qurilmalari, shuningdek posangilashtirilmagan aylanma harakat qiluvchi qismlar, masalan qo`lda ishlatiladigan silliqlovchi mashinalar, dastgohlarning silliqlovchi va qirquvchi qismlaridan kelib chiqadigan titrashlar misol bo`la oladi.

Shovqindan saqlanish. Hozirgi zamon texnika taraqqiyoti davrida sanoat korxonalarida shovqinga qarshi kurash masalalari muhim masalalar qatoriga kiradi. Bu masala asosan mashinasozlik sanoatida transport vositalarini ishlatishda va eenergetika sanoatida juda jiddiy masala bo`lib turibdi.

Shovqinning oqibatlari ma'lum. U birinchi navbatda ishlab-chiqarishda mehnat qilayotgan kishilarni ma'naviy toliqtiradi, shovqin chiqaruvchi mashinalarni ishlatayotgan ishchilar va ishlab chiqarish jarayonini boshqarayotgan operatorlar ishiga xalal berib, ularni har xil hatoliklarga yo`l qo`yishlariga olib keladi. Bu esa o`z navbatida ishlab-chiqarish jarohatlanishlari kelib chiqishining asosiy manbai hisoblanadi.

Katta shovqin ta'sirida insonning asab sistemalari zirqillaydi, eshitish organining susayishiga sabab bo`ladi.

Shuning uchun ham sanoat korxonalarida shovqinni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lib, inson salomatligini saqlashi bilan katta ahamiyat kashf etadi.

Shovqin haqida tushuncha. Odam uchun yoqimsiz har qanday tovushlar shovqin deb ataladi. Jismlarning bir-biriga urilishi, ishqalanishi va muvozanat holatining buzilishi natijasida hosil bo`lgan havoning elastik tebranishi harakati qattiq, suyuq va gzsimon muhitda to`lqin hosil qilib tarqaladi. Bunda muhit zarralari muvozanat holatiga nisbatan tebranish hosil qiladi. va bu tebranish tezligi to`lqinlar tarqalish tezligidan ancha kichkina bo`ladi.

II bob. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish usullari

2.1. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari

Odobnoma darslari o'z nomi bilan o'quvchilarda kishilar o'rtasida o'zini tutish, tabiat va jamiyatga munosabat odobini shakllantirish fanidir. Shu sababdan biz odobnoma darslarida har bir darsda o'zimizning milliy an'analarimizdan kelib chiqqan holda o'quvchilarga turli odob sirlarini o'rgatib boramiz. Ma'lumki ota-onaga hurmat o'zbek halqining azaliy amal qiluvchi an'alaridan hisoblanadi. Sharq halqlarida farzandlarga ota-onani hurmat qilish yuzasidan tengsiz o'g'lar va odobiy munosabatlar majmuini qoldirganki bugungi kunda ham farzandlar ularga amal qiladi. Ota-onaga tik qaramaslik, ulardan teparoq joyga o'tirmaslik, aytganlarini hurmat bilan tinglash, gap qaytarmaslik kabi odobiy sifatlarni kichik maktab yoshidayoq o'quvchilar ongiga singdirish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Texnologiya tushunchasi pedagogika fani, ishlab chiqarish sohalarga ancha keng qo'llanib, "Texnologiya" – so'zi yunoncha techne – san'at, logos – mahorat degan ma'noni anglatadi. Olimlarning takidlashicha, "Texnologiya" atamasi "bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish sa'nati"ga e'tibor qaratilib, har bir davrda o'ziga xos zamonaviylik kasb etib, yangilanib, takomillashib kelgan. "Pedagogik texnologiya" atamasini o'qitish, ta'lim berish jarayonidagi pedagogik mahorat, san'at deb tushunish mumkun. Sa'nat ichki hissiyotga, texnologiya esa fanga asoslanadi.

Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha J.G'.Yo'ldoshov, O'.Tolipov, N.G'ulomova, Yu. Amirjonova, D.Nuriddinova, M.Ochilov, T.Saidov, M.X.Usmanbabayeva X.Mavlonov, N.Ulug'ov, F. Boynazarov kabi pedagog olimlarning interfaol darslar xaqidagi ilmiy-nazariy va amaliy metodik qarashlari, tajriba va izlanishlari muhim omil bo'ldi.

Fikriy hujum metodi o'quvchilarni mashg'ulot jarayonidagi faolligini ta'minlab erkin fikr yuritishga o'rgatadi. O'quvchilarni mustaqil fikrlash, muayyan mavzuni muhokama qilishga, yangi muammolarni keltirib chiqarishga ijodkorlikka yetaklaydi.

Aqliy hujum metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan moammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib mashg'ulot ishtirokchilari muammo hususida keng va har tamonlama fakr yuritishidir.

Klaster metodi(zanjir usuli) pedagogik, didaktik ta'limni muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin ochiq o'ylash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Klaster metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Nimani o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning to'g'riligi yoki sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2. Yozuvning orfografiyasi, punktuatsiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bering.

3. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddatda biror-bir g'oyani o'ylayolmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini, tasvir yoki shakllar chiz bu harakatni yangi g'oya tug'ulguncha davom ettirin.

“Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqi dildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi”¹

Darhaqiqat, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasi uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari insonning inson bilan, qo'shnining qushni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga sarovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi.

1- sinf odobnoma darsligining 8- sahifasida “Oila odobi” deb nomlangan bo'lim berilgan. Unda “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Ota-onaga hurmat”, “Aka-


uka, opa-singillar munosabati” “Kiyinish odobi”, “Salomatlik – tuman boylik”, “Ish yoqmas – hech kimga yoqmas” va “Dasturxon atrofida o’tirish odobi” kabi mavzular berilgan bo’lib, ushbu mavzular bo’yicha o’quvchilarga ma’lum bir tushunchalar berish, mavzu mazmun-mohiyatini o’quvchilar ongiga singdirish hamda ushbu tushunchalar orqali boshlang’ich sinf o’quvchilarining oila odobi haqidagi bilim va ko’nikmalarini shakllantirish hamda uni yanada rivojlantirish masalalari birincha galdagi vazifalar etib belgilangan.

Masalan, yuqoridagi “Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusi ostidagi rasmlar orqali boshlang’ich sinf o’quvchilariga quyidagilarni tushuntiramiz. Birinchi rasmda keksa yoshdagi kishilar, ota-onalar va maktab yoshidagi uch nafar farzandlar tasvirlangan. Ular bir dasturxon atrofida o’tirib, nonushta qilishmoqda.




Ushbu rasmdan biz keksa yoshdagi bobo va momolarimiz bor xonadonlarda doimo ahillik, totuvlik, fayz-baraka bo'lishini o'quvchilarga tushuntiramiz. Bu tushuntirish uslubi orqali o'quvchilarga oila odobi, keksalarni hurmat qilish odobi, dasturxon atrofida o'tirish, o'zini tuta bilish odobi kabi dastlabki tushunchalar beramiz. Bu orqali o'quvchilar kichik yoshdan boshlab kattalar oldida o'zlarini qanday tuta bilishi, odobli va axloqli bo'lish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. 2-rasmda oilada kattalarning maktab yoshidagi farzandlariga mehnat bilan shug'ullanish odobi haqida tushunchalarini singdirishayotgani tasvirlangan.


Ma'lumki, bu davrda 1-sinf o'quvchilari o'qish va yozish texnikasini puxta egallamagan bo'ladilar. Shu bois biz 1- sinf odobnoma darslarida rasmga asoslangan mashqlardan foydalanamiz hamda ushbu usul orqali o'quvchilarning avvalo, og'zaki nutqlarini rivojlantiramiz, qolaversa, ularning so'z boyliklarini oshiramiz, erkin fikrlash, rasmga qarab hikoya tuzish, tuzilgan hikoyani qayta hikoya qilish kabi bilim va ko'nikmalarini rivojlantiramiz. Shu bilan birga o'quvchilarning tafakkur doirasini, dunyoqarashini kengaytiramiz, tabiatga, Vatanga, ota-onaga, oilaga bo'lgan mehr-muhabbatlarini shakllantiramiz va uni yanada rivojlantiramiz. Demak, bu yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda rasmga asoslangan mashqlarning ahamiyati nihoyatda beqiyos.



1-sinf odobnoma darsligining 6-sahifasida “Kim kimga salom beradi?” rukni ostida 4 ta rasm berilgan va bu rasmlarda kim kimga qanday salom berishi kerakligi xaqida o’quvchilarga tushunchalar beriladi. Masalan 1-rasmda ayollarning salomlashish odobi xaqida rasm berilgan. Ushbu rasmda ayollar bir-biri bilan o’zaro salomlashganda ikki qo’llab salomlashishlari ko’rsatilgan. Bir kichkina qizcha rasmda nojo’ya tasvirlanmagan. Bundan quyidagi xulosani chiqarish



3- rasm



4- rasm

mumkin kattalar salomlashganda va suhbatlashganda kichik yoshdagi bolalar ularga xalaqit bermasliklari, suxbatga aralashmasdan odob saqlagan holda turishlari uqtiriladi.

2-rasmda erkaklarni salomlashishlariga oid rasm berilgan bo’lib, unda kichik yoshdagi bolalar odob saqlagan holda, qo’llarini ko’ksilariga qo’yib salom berishlari, kattalar qo’l uzatgandagina qo’l berib so’rashishlari mumkinligi xaqida ko’nikmalar berilgan.

3-rasmda o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida salomlashish odobiga oid rasm tasvirlangan bo’lib unda o’quvchilarni o’qituvchilarga faqatgina qo’llarini

ko'ksilariga qo'ygan xolda salomlashishlari, ustozlari bilan qo'l berib so'rashishlari shart emasligi xaqida tushunchalar berilgan.


4-rasmda esa otda ketayotgan odam bilan yayov ketayotgshan odamlar o'rtasida salomlashish odobiga oid fikrlar berilgan. Bunday holatlarda otda yoki turli xil transport vositalarida ketayotgan odam yayov yurgan odam oldiga kelganda ot ulovini yoki transportini to'xtatib salom berishi, yayov yurgan odamning alik olishi tasvirlangan.

Yuqoridagi barcha rasmlar orqali biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga kim kimga salom berishi zarurligi xaqida bilim va ko'nikmalar beramiz va ushbu bilim va ko'nikmalarni berilgan rasmlar asosida matn tuzish, rasmdagi tasvirlangan kishilarga ism qo'yish, ularni salom berish jarayonlarini sahna ko'rinishlari orqali rolli ijro usulidan foydalangan holda ko'rsatib berish natijasida o'quvchilar ongiga singdiramiz. Avvalo biz salomlashish so'zining ma'nosini o'quvchilarga tushuntirib bermog'i lozim. Assalomu alaykum so'zi arab tilidan olingan bo'lib, sizga tinchlik tilayman degan ma'noni bildiradi. Va alaykum assalom iborasi esa sizga ham men tinchlik tilayman degan ma'noin bildiradi. Shu bois ushbu arabcha so'zlarning taalaffuzini buzmasdan o'z nutqimizda ishlatishimiz lozim. Ushbu kalomni buzib taalaffuz qilish salomlashish so'zining ma'nosini butunlay buzib yuborishi mumkin. Ko'p xollarda yoshlar o'rtasida to'g'ri salomlashishga e'tibor berilmayotgani, so'zlarni buzib taalaffuz qilish hollari uchrab turganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Masalan:


- Assalom, - deb so'rashish assalomu alaykum so'zining chin lug'aviy ma'nosini ifodalamaydi. Demak, bunday salomlashish umuman mukin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat odobnoma darslarida, balki darsdan tashqarida oilada, mahallada biz kattalar salomlashish odobi bo'yicha ularning bilim va ko'nikmalarni oshirib borishimiz lozimdir. Masalan, maktabda salom bermay o'tib ketayotgan o'quvchini to'xtatib, nega siz salom bermay o'tib ketayapsiz? Qani qaytadan salom berib o'tingchi,-deb ularga tanqidiy munoabatimizni o'z vaqtida bildirib borsak, o'quvchilarning salomlashish odobi yuzasidan dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlanib

borishiga erishamiz. Bu usulni biz ko'chada, mahallada va oilada qo'llasak maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.



5- rasm



6-rasm

7- rasm

1-sinf odobnoma darsligining 7-sahifasida “Qachon salomlashilmaydi” mavzusi ostida 3 ta rasm berilgan bo’lib, insonlar bir-birlari bilan qachon salomlashmasliklari mumkinligi haqida tushunchalar ifodalangan. Quyidagi holatlarda salom berilmaydi:

5-rasmdagi kabi odamlar ovqatlanish maskanlarida bir-birlari bilan salomlashmaydilar. Biroq, salomlashish odobiga ko’ra sizga yoqimli ishtaha tilayman, ishtahangiz karnay bo’lsin kabi iboralarni ishlatish va bir-biriga nisbatan mehr- muruvvat ko’rsatishga ruhsat etiladi.

6-rasmdagi kabi ota-onalar, o’qituvchilar va yoki katta yoshdagi kishilar kitob mutoala qilayotgan holatlarda ularga salom berish va bu bilan ularni chalg’itish, fikrlarini bo’lish kabi odatlar salomlashish odobiga to’g’ri kelmaydi.


7-rasmdagi kabi holatlarda ham kishilar o’z hojatlari bilan mashg’ul bo’lgan hollarda salomlashish odobga ziddir.




8- rasm



9- rasm



10- rasm



11- rasm

Yuqoridagi rasmlarda oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda mehr-oqibatli, o'zaro hurmat-ehtiroimli bo'lish kabi insoniy munosabatlar haqidagi tushunchalar berilgan. Masalan,

8-rasmda ota-onalar yuz-qo'llarini yuvishgan vaqtda farzandlarning ularga xizmat ko'rsatishlari, ya'ni qo'llariga suv quyishlari, yoki yuz-qo'llarini yuvishganda ularga oppoq sochiqlar tutishlari oilaning muqaddas odob normalari ekanligi o'quvchilarga tushuntirilmoqda.

9-rasmda esa, oiladagi opa-singillar munosabatida opa-singillar bir-birlari bilan ahil-inoq, mehr-oqibatli, shirin muomalali bo'lishlari, har qanday holatda ham bir-birlariga yordam qo'llarini cho'zish odobi haqidagi tushunchalar ifodalangan.

10-rasmda katta yoshdagi bolalar, ayniqsa opalar o'z ukalari yoki singillari to'g'risida qayg'urishlari, ularni doimo nazorat qilib borishlari, yuz-qo'llari va yoki kiyimlari iflos bo'lganda yuvinishlarida ko'maklashishlari lozimligi uqtiriladi.

11-rasmda oilada opalar o'z ukalari yoki singillariga qarab borishlari, ularni nazorat qilib borishlari, ayniqsa, yura olmaydigan ukalarini o'ynatish, qiziqarli hikoyalar, she'rlar aytib berishlari xaqida tushunchalar berilgan. Shu bilan oilada farzandlarni bir-biriga o'zaro munosabatlar jarayonida mexribon bo'lish, bir-birlariga nisbatan izzat-ikrom ko'rsatish xaqida tushunchalar berib o'tilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu rasmlar orqali matnni tasvirlash, matnni qayta hikoya qilish kabi mashqlar orqali mavzuga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirish xamda uni rivojlantirish odobnoma darsining asosiy vazifasi etib belgilangan.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini muomala madaniyatiga o'rgatishda mahalla, maktab va oila hamkorligi.

Sinf va maktab birgalikda mehnat qilayotgan kundalik faoliyatda yaqin hamkorlikda yashayotgan o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi ahloqiy munosabat madaniyati jamoadagi ahloqiy madaniyatning asosiy ko'rsatkichidir. Sinf rahbari o'quvchilarni ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan birga ularni bo'lajak ota-onalar sifatida kamolga yetuvini ta'minlash zaruratini ham e'tibordan qochirmasligi lozim. Bu jinsiy tarbiya vazifasi bilan bog'liq bo'lgan maqsad, balog'atga yetayotgan yigit va qizlarimizni muomala madaniyatiga o'rgatishdan ham iboratdir.

Maktab oila hayotiga, undagi tarbiya tizimiga faol ta'sir etishga o'quvchining hayoti, ma'naviy va ma'rifiy shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarida quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi.
2. O'quvchiga nisbatan maktab va oilaning yagona talablari qo'yilishiga erishadi.
3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlarida faol qatnashishlarini ta'minlaydi.
4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ibot etadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi.
5. Sinfga otalik qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqada bo'ladi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qildi.

Sinf rahbari o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam habar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

1. O'quvchining mehnatiga tavsifnoma: o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklari, ularning sabablari, olayotgan baholari.

2. O'quvchining ijtimoiy faolligi haqida axborotlar: o'quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligini, jamoat topshiriqlari va vazifalarining bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

3. O'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari munosabatda vujudga kelgan holatlarning harakteri, maktabdagi munosabatlarning doirasi.

4. O'quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish.

5. Oilaga o'quvchi, tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

1. Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

2. Belgilangan kun tartibning bola tomonidan bajarilishi.

3. O'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, tassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealar munosabati.

4. Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbarlari, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu hildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'planadigan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli hulosalar chiqarsa, bola hulqini va fazilatlarini yahshilash yo'llari, keyingi rejalarini

belgilasa, erishilgan yutuqlarni hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib borsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shahsiy, guruh-guruhli va ommaviy kabi shakllari keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatining asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi, hamda ularni maktab talablari bilan tanishtirish, jamoyatning tarbiyadan kutadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalgam oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi o'zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumalar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Sinf rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'nalishini belgilab beradi.

Sinfda ota-onalar majlislarining bir necha hili mavjud; sinfdagi tashkiliy ishlar bilan bog'liq majlislar, ota-onalarga pedagogic ma'lumot berishga bag'shlangan majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag'ishlangan majlislar. Bu majlislarning ha biri o'z maqsadiga tayorlash ba o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan bog'liq sinf ota-onalari majlisida odatda ota-onalar guruhi saylanadi, ish rejaları va vazifalari taqsimlanadi.

Ko'pgina maktabdagi sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlar tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'proq shahsiy ish shakli bo'lib, unda sinf rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradilar.

Sinf rahbari o'zining suhbatini, oilani o'rganish va kuzatish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan o'tkaziladigan ishlarni belgilab boradigan mahsus jurnaliga yozib borishi g'oyat muhim. Agar bu hil jurnalni sinf rahbarlari har yili

muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'sirning yaxshilanishida muhim vositasiga aylanadi.

Sinf rahabrining ota-onalar bilan olib boriladigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqiyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi.

Ota-ona va o'qituvchi hamkorlik ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchi ruhiyatida, hatti-harakatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtidida, unga kerakli "tashxis" qo'yish imkonini beradi. Masalan, o'quvchining o'zlashtirishi, qiziqishi va orzu umidlari, kelgusida kim bo'lmoqchi ekanligi haqida hamkorlikdagina chuqur ma'limotga ega bo'lamiz. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona uy-fikridan, maslahatidan foydalanish juda zaruru. O'quvchi kasalligi sabab judako'p vaqt darsdan qolsa, o'tilgan darslar bo'yicha topshiriqlarni ota-onasi bilan kelishilgan holda uyga berib yuborish mumkin. Yoki o'quvchingiz bilimi pastligini yaxshilamoqchisiz. Bunday paytda o'quvchi bilan alohida shug'ullaniladi. Lekin bu har doim ham samara beravermaydi. Mashg'ulotlarda bolaning ota-onasiga murojaat qilish, o'quvchining uydagi holti bilan yaqindan tanishgan holda ham dars o'tish yaxshi natija beradi.

Ota-ona bolasining bilim olishga bo'lgan qiziqish pasayib ktganini sezsa, darrov o'qituvchiga murojaat qilishi zarur. Ehtimol maktabdagi muhit bunga sabab bo'layotgandir. Ba'zan o'quvchining partasi o'zgargani, biror-bir bola bilan urushib qolish, o'quvchilar orasida kamsitilishi ham bunga sabab bo'ladi. Oiladagi salbiy muhit ham bundan mustasno emas.¹

Maktabdagi shunday voqea bo'lib o'tgandi. Anvar ismli bola ko'p dars qoldirar edi. Men o'quvchiga qiziqib, muammoning sababini aniqlashga tushdim. O'qituvchisi bilan gaplashganimda, "Anvarning oilasidagilarini ham, oilaviy sharoitini ham tushuna olmayman" dedi. Anvarning oilaviy sharoiti bilan tanishdim. Uning onasi ikkinchi marta oila qurgan bo'lib, Anvar o'gay ota qo'lida tarbiyalanar edi. U 3-sinfda ko'p dars qoldirgani bois keyingi o'quv yili oldidan

¹ Mavlanova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. "Pedagogika". "O'qituvchi", Toshkent. 2001 yil. 84-b.

onasi bilan suhbatlashdik. O'shanda u bolasining maktabdan qolishga jo'pchilik vaqtlarda dadasi sababchi bo'lishini aytdi. Anvarni o'zimning sinfimga o'tkazgach, ishni bolaning dadasi bilan suhbatdan boshladim.

Ularning uyiga bir hujjatni bahona qilib borib, dadasiga yolg'on gapirib bo'lsa-da, vaziyatni yaxshilamoqchi bo'ldim. Bolaning dadasi soddaroq odam edi. "Siz bolangizni maktabdan olib qolsangiz bo'lmaydi. Har kuni posbon hodimlari maktabga kelmaydigan o'quvchilar ro'yhatini so'raydi. Agar shu holat takrorlanaversa, sizning familyangizni yozib beraman. O'zingiz borib posbon hodimlariga javob berasiz", - dedim. Buni eshitib, "maktabdan olib qolmayman", - deb va'da berdi.

Darsga muntazam qatnashish natijasida uning o'zlashtirishida bir qadar o'sish ro'y bera boshladi. Darsdan tashqari vaqtlarida qo'shimcha mashg'ulotlar o'ta boshladim. Bir kuni u menga kelgusida o'qishga kirish niyati borligini aytdi. Demak, o'qituvchi o'quvchiga yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi bo'lsa, ular o'rtasida do'stona munosabat shakllansa, har qanday o'quvchi ruhiyatida ijobiy tomonga o'zgarish ro'y beradi. Unda o'qishga, izlanishga rag'bat paydo bo'lishi mumkin ekan. Bunday munosabat o'quvchining bilim olishi bilan birga hayotga qo'llanna olishida ham katta ahamiyatga ega.

Bir kuni Anvarning otasini ko'rib qoldim. Unga o'glining o'qishlari yaxshi tomonga o'zgariyotganini aytib, "sizning yordamingiz bilan a'lochi bo'ldi", - deya ta'kidladim. Uyiga borib oilasidagilar bilan munosabatini yaxshilabdi. Hech qancha vaqt o'tmay onasi kelib o'glining maktabga bo'lgan qiziqishi ortganini, shuningdek, ota-bola munosabati ham yaxshi tomonga o'zgarganligini ko'zida yosh bilan aytib berganidan mehnatim bekor ketmaganligidan, bir shikastda dardiga malham bo'la olganimdan hursand bo'lib ketdim.

Har bir ota-ona o'z-o'ziga shunday savol berib ko'rsin. Javob ijobiymi? Agar Sunday bo'lsa, farzandingiz maktabda a'lo baholarga o'qishiga kafolat bor. Javobinigiz salbiy bo'lsa, demak yondashuvingiz noto'g'ri. Nima qilish kerak? Bu masalani o'qituvchi bilan hamkorlikda hal qilish lozim.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilishda interfaol usuldan foydalanish mumkin. Chunki o'quvchi faqat maktabda emas, uyida ham erkin fikr yurita olishi kerak. Buning uchun o'quvchilarning qobilyati, bilim darajasiga qarab ota-onalarga maslahatlar berish, jumladan, qanday kitoblar olib boorish kerakligi, ko'poq kitob o'qish uchun sharoit yaratish, kompyuter kurslariga qatnashtirish yahshi natija berishini aytish kerak.

O'zlashtirish pastroq bolalarning ham albatta biror narsaga nisbatan qiziqishi, qobilyati bo'ladi. Ana shu qobilyatni boshlang'ich sinf davridan rivojlantirishimiz zarur. Avval bolaning qaysi kasbga qiziqishini ota-onasi yordamida bilibolishimiz kerak. Buni bola uyda nima bilan ko'proq mashg'ul bo'lishini, yoqtirishini ota-onasidan so'rash orqali aniqlash mumkin. O'quvchilarning kasbga qiziqtirish uchun turli hil kasbdagi kishilar bilan uchrashuvlar uyushtirish zarur. Bu harakatimiz o'quvchilarni kasb-hunar kollejlariga kirishlari uchun qiziqsh uyg'otadi. Shu bilan birga, ota-onalar bolalarining qaysi ko'rsatuvlarini aytishlari, ular haqida maslahatlar berishlari zarur. Maktabda ota-onalar majlislarini maxsus dastur asosida tashkil etish ham ota-onalar bilan hamkorlikni yahshi yo'lga qo'yishda muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Ota-onalarning ba'zi birlari ayrim sabablarga ko'ra majlisga kelmsa, ba'zi birlari atayin qatnashmaydilar. Ularni maktabga jalb qilish uchun nima qilish kerak? Masalan mamlakatimizda bo'lib o'tadigan bayramlarga bag'ishlab, bundan tashqari "Non – rizq-ro'zimiz", "Olkamga bahor keldi", "Biz kichik oshpazlarmiz"? "Tabiat – bizning boyligimiz", "Kitob – bizning do'timiz", "Biz – buyuk Vatan vorislarimiz" va boshqa mavzularda kechalar tashkil etishimiz mumkin. Bolalarning she'r qo'shiq aytishlarini, raqsga tushishlarini ko'rgan ota-onalarning ko'ngli ko'tariladi. Ota-onalar jajji farzandlaridan faxrlanishadi, bahtli ota-ona ekanliklarini his qilishadi. Ayniqsa, kirish qismida ota-ona, Vatan she'r aytirib, gullar tashkil qilsangiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning yugurib borib o'z ota-onalariga gullar taqdim qilishini ko'z oldizga keltiring, diqqat bilan qarasangiz, ularning naqadar bahtiyor ekanligini ko'rasiz. Shunday lahzalarni his qilgan ota-ona ni keyingi majlislarga chaqirsangiz, albatta kelishadi. O'qitish jarayonida kerak bo'lgan

talablar qo'ysangiz bajarishga harakat qiladi. Hatto o'z taklif mulohazlari bilan sizga yordam beradi. Bundan tashqari, ota-onalar ishtirokida "Mening oila" haftalik burchagini tashkil qilish mumkin. Har haftada yangilanib turadigan ushbu burchakda ota-onalarning bolalari bilan qanday ish olib borishlari, o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning ota-onasiga qanday yordam berayotganlari aks etadi. Shu bilan birga, oilada tushgan fotosuratlardan namunalar qo'yish ham mumkin. Bunday sharoitda bolalar bir-birlarining oilaviy sharoitlari bilan ham tanishadilar, oilada nima ish qilishlarini bir-birlaridan o'rganadilar. Majlislarda ota-onalarga maslahatlar yozilgan varaqlar tarqatish juda katta ahamiyatga ega. Chunki siz ota-ona qo'liga qo'llanma bergan bo'lasiz. Shunda ularning tadbirga nisbatan e'tibori oshadi, oldilarida mas'uliyatli vazifa turganini his etadilar.

Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda xilma-xil shakl va metodlarni foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashda shahsiy ishlar bilan birgalikda olib boruvchilarning fuqarolik hissi takomillashib boradi. Vatan madhiyasi, gerbi, Konstitutsiyasi va bayrog'imiz, millatlararo do'stlik, tristik ishlar, o'lkashunoslik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy-ma'orif ishlarini rejalashtirish lozim.

Siyosiy sezgirlik shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi mavzularni: "O'zbekiston", "Harbiy vatanparvarlik"ni dastlabki ish mavzusi qilib olish lozim. Bu narsa ilova qilib siyosiy gazeta va jurnallarda obuna qilish, ularni baynalminal do'stlik klubiga a'zo etish, siyosiy maktab radiokanalining sharhlovchilari guruhiga jalb qilish, harbiy sport o'yinlariga jalb etish zarur. O'quvchilarni bu narsaga jalb qilish ularning siyosiy saviyasini ko'taradi, Vatanga bo'lgan mehrini oshiradi.

Milliy axloq-odob va qadriyatlardagi yaxshi udumlardan biri oilada ota-onaga cheksiz hurmatdir.

Aslida, ota uyi, ota vatani bo'lishi kerak. Chunki ayol palaxmon tosh kabi ota vataniga boradi, lekin ona aziz-mo'tabar bo'lgani uchun ona, Vatan — ona diyor deb ulug'lanadi. Milliy axloq-odobda otalarni oilada adolatli bo'lishligiga alohida e'tibor berilgan.

Otaning adolatli bo'lishi oiladagi odobning ustuni, insoniylikning asosi hisoblanadi. Adolat — insof eshik-larini odamlarga ochib beradi. Ayniqsa, otaning adolat yuzasidan ish ko'rishi muhim hisoblanadi. Qadim zamonda bir bola qozi otasiga «ustozim meni jazoladi» deb yig'lay boshlabdi. Ota surishtirmay, ustozni jazoladi. Farzand bu holatni ko'rib, otani adolatsiz-ligidan nafrat qilish o'rniga, «otam bor ekan, nima ish qilsam qilaveraman» deb o'ylaydi. «Adolatsiz otadan adolatsiz farzand», degan dono so'z bejiz emas, albatta.

Axloq-odob va qadriyatlarda farzand burchi, ota-ona mehriga loyiq bo'hshi alohida o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun qanchalar shirin va aziz bo'lsa, ota-ona ham bolaga shunchalik aziz va shirin bo'lishi kerak.

Xalqimiz aytganidek: «Har kim ekanini o'radi». Ota-onaga nima qilsang, bola-chaqangdan qaytadi.

Xalq milliy axloq-odobida farzand burchidagi bosh g'oya ota-onani g'animat bilish.

Gar desang umrimda g'amgin bo'lmayin, Ota-ona xizmatin qil, xizmatin.

Milliy odob-axloq va qadriyatlarning oiladagi o'rni dastlab ezgu niyatda.

Tongi kayfiyat — yaxshi xosiyat. Inson har kuni «qanday xayrli ishga qo'l ursam», degan yaxshi niyat bilan turishi muhim ahamiyatga ega. «Turkiy shohnoma» kitobida aytilganidek: «Ey o'g'il! Bomdod nomozdan so'ng ota-onangni ziyorat qilgin, agar • ularning biror yumushi bo'lmasa, o'z yumushing bilan shug'ullangin. Shunda umringiz, kuningiz barakatli bo'ladi».

Milliy odob tartib-qoidalari islomiy ma'naviyatda ham alohida e'zozga sazovordir. «Saodat kaliti» kitobida Payg'ambarimiz SAVning yuksak odob-axloqlari va ibratli hayotlari hikoya etiladi. Abdurahmon Qoya «Islom axloqi» risolasida islomiy qadriyatlar, odamiylik, halollik, adolatparvarlik, do'stlik, kamtarlik, saxiylik, mehr-oqibat ko'rsata bilish, oliyjanob fazilatlamini mohiyati-mazmuni bilan birga, zararli illatlar oqibatlarini chuqurroq anglab etish uchun hayotiy misollar keltiradi.

Oila – jamiyatning negizi. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir.

Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushimcha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushimchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.¹ Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odmalarning talab ehtiyojlari shakllanadi.

O'zbeklarning aksaryati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki, oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-essonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bugungi O'zbekiston mustaqilligining mustahkamligi, va oilalarning mustahkamligi uning kelajak ravnaqi; avvalo, uning fuqarolariga, ularning amaliy faoliyatiga, ma'naviy axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o'zligini qanchalik anglay olishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bunda esa, o'z-o'zidan ma'lumki, oila va oilada bolalarga singdirilgan tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni e'tirof etish kerakki, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligi, faolligi ilg'or mafkuraga qat'iy amal qilishi va e'tiqodga bog'liq. Zero Istiqlol markurasi etuk milliy ong, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, birdamlik va hamjihatlik tuyg`usi zamirida ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'z ichiga oladi.

Mustaqil O'zbekistonning yaratilajak istiqloq mafkurasi uning milliy va umumfnsoniy qadriyatlariga asoslanadi. Bu qadriyatlar axloqiy, badiiy, falsafiy, diniy, huquqiy qarashlar va g'oyalar mafkuramizning insonparvarlik mohiyatini yanada to'ldiradi va boyitadi. Zaminini mustahkamlaydi, ta'sirchanlikni oshiradi, amaliy ahamiyatni kuchaytiradi.

Mafkura insonni halol va pokiza bo'lishga, ilm-fan asoslarini egallashga beva-bechoralarni qo'llab-kuvvatlashga, tabiatni e'zozlashga da'vat etadigan diniy, axlokiy qadriyatlarga alohida etibor berishga da'vat etadi. Bu borada ayniqsa buyuk bobokalonlarimiz imom Buxoriy, Baxouddin Naqshband, Xuja Ahmad

Yassaviy, Imom at-Termiziyning insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari hikmatlari katta o'rin tutadi.

Mustaqil O'zbekistonning madaniy-ma'naviy taraqqiyot mafkurasi jamiyatimizning siyosiy va iqtisodiy sohalarida bo'lgani kabi madaniy-ma'naviy taraqqiyotimizga ham aniq maqsad va yo'nalish beradi. Bu yo'nalish esa hozirgi davrda ma'naviyat masalasining istiqlol sari qat'iy ishonch bilan borishdagi asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Umuman, ma'naviyatning inson hayotida, jamiyatning rivojlanishida, oilalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga molik ekanini e'tirof etmoq muhim. Chunki, ma'naviyat bo'lmagan joyda rivojlanish ham iymon va e'tiqod ham, vatan va erk tuyg'usi ham, xalqda diyonat-u adovat ham bo'lmaydi.

Ma'naviyatning qudratli kuchi shundaki, u barcha xalqlarni o'zaro birlashtirishda, ular o'rtasida ahillikni kuchaytirishda, do'stlik, qarindoshlik, hamjihatlikka chorlaydi. Oilada esa bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim tarbiya olish sifatida xizmat qiladi.

Prezidentimiz 2012 – yili “Mustahkam oila yili” deb atashlari ham fikrimiz dalilidir. Nag bir oilaning turmush tarzini o'zgartirish va yuksak darajaga ko'tarish kerak. I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi oliy Kengashi 15-sessiyasida so'zlagan nutqida, farzanlarimizga baxli kelajak yaratish harakatida ekanmiz, mustaqillik sharoitida gullab yashnayotgan oilalar nazarimizda quyidagi talablarga javob bermog'i nazarda tutiladi.

Birinchiidan, mamlakatimizda o'tkaziladigan iqtisodiy va ma'naviy islohotlarni amalga oshirishda sifat jihatidan tayanch nuqta vazifasini kafolatlamog'i lozim

Ikkinchiidan, xalqimizning boy va qadimiy tarixini moddiy va ma'naviy merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini-yu ana'nalarini avloddan-avlodga asl holicha yetkazadigan milliy faxr sifatida avaylab asraydigan va jahon miqyosida umuminsoniy qadriyat tarzida namoyish eta oladigan, shuningdek, jamiyatimizning farovonligi jahonda taraqqiy etadigan davlatlar sifatidan o'rin olish uchun to'la imkoniyat yaratmoq niyatida mehnat qiladigan ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom-avlodni tarbiyalab etishtirish zarur.

Uchinchidan, O'zbekistonning buyuk kelajagi oiladan boshlanadi. Kelajakning buyukligini ta'minlash mezonlaridan biri, o'zlikni anglashni shakllantirish, milliy ong va milliy g'urur tuyg'usini tarkib toptirish, jahon sivilizatsiyasining eng yorqin saxifalaridan o'rin olgan milliy madaniyatimizni tiklashda faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va mehnatsevarlikni qaror toptirish oilaning kundalik turmush ehtiyojlaridan biriga aylanib qolishini taqozo etadi.

Mustaqil O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasini belgilashda besh asosiy negiz ilgari suriladi:

- Birinchidan, mustaqillik his-tuyg'u va uni to'la idrok etish.
- Ikkinchidan, o'zbek milliy mafkurasi.
- Uchinchidan, ko'p millitli O'zbekiston xalqining vatanparvarligi,
- To'rtinchidan, jamiyatda oilaning ustivorligi.
- Beshinchidan, qonunga itoatgo'ylik, intizom va tartib.

Milliy mafkuraning asosiy negizini tashkil etuvchi o'zbek xalqining asrlar mobaynida saqlanib, sayqallanib kelgan milliy urf-odatlar, rasm-rusumi, udumi va an'analari, yurish-turishi, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy ongi, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy va axloqiy dunyosidir

Chunki bolalarni ana shu ko'zga ilinmas his-tuyg'u va ong ajdodlar xotirasi va ezguligi ta'sirida, ona suti, ona allasi, ona o'giti, namunasi, ta'siri asosida ma'naviy ozuqa, tarbiya oladi. Bularning barchasi ma'naviyat hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning buguni va ertasini, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy turmush tarzini yuksak darajaga ko'tarish yoshlar qo'lida.

Madomiyki shunday ekan, demak, oilaviy tarbiya asosida endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday tushunchani singdirish kerakki, ular davlatimiz o'rtaga qo'yayotgan muammolarni bajarishi, avvalo, ularning kuch-qudratlariga, bilim' va sabotlariga, g'ayrat- shijoatiga, fidokorligiga, mehnatsevarligiga bog'liq ekanini tushunib etsinlar.

Eng muhimi bunday tushunchani barcha insonlarda shakllantirish davlatimiz ravnaq topishining asosiy sharoitlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki mustaqillik bugun bizning Respublikamiz uchun shunchalik bir yangi siyosiy vaziyat.

Chinakamiga har tomonlama himoyaga muhtoj nafaqat kuchli shaxslarning, balki har bir insonning faolligi jamiyat faolligini talab qiladigan ulkan qal'adir.

Demak bugungi kunda milliy his-tuyg'ular, vatanparvarlik, g'urur va jasorat tarixiy omillar bo'lib maydonga chiqadiki, bunda oila va oilada bola tarbiyasi masalasi eng muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Mana shu ma'noda ham qomusimizda oila masalasi eng dolzarb mavzular qatorida qayd etiladi.

Qomusning 16-bobi oila xususiga bag'ishlangan.

Unda quyidagilar qayd etilgan. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar, deyiladi.

Sharq mutafakkirlarning bebaho fikrlari, durdona asarlari, ularning pandnomalari-yu, rivoyatlaridan oqilona foydalanib, ularni maslahatlariga amal qilgan holda ish olib borish ko'zlangan maqsadga erishishning muhim omili ekanligi nafaqat fanda, balki, kundalik turmush faoliyatida ham allaqachon isbotlangan.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosini boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, jamiyatni ham har tomonlama ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy, ham moddiy rivojlantirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda bu masalaga nechog'lik chanqoqlik his qilinayotgan'ligi tobora rivojlanib bormoqda.

Shu boisdan ham keyingi paytlarda Sharq mutafakkirlarining hayotiga, faoliyatiga va ularning asarlariga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Natijada qator tadqiqotlar, ilmiy nazariy asarlar, qo'llanmalar yuzaga keldi.

Sharq xalqlarining ma'naviy merosi xilma-xil, ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatdan bir biriga chambarchas bog'langan. Bu asarlar o'z muxtasarligi, ravonligi, qiziqarlighi, ohangdorligi hamda didaktik ahamiyati, g'oyaviy mazmunini, ma'naviy to'qligini hayotiyliqi bilan, xalqqa yaqinlik bilan insonlarning ma'naviy axloqiy tarbiyalashda o'zgacha muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ham qadrlidir.

Mutafakkirlarning hikmatli so'zlari bilan barcha ilg'or qarashlari va umumma'rifiy orzularini tarannum etuvchi voqea va hodisalar o'zining tarbiyaviy mazmuni bilan yoshlarni komil insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Zero, mutafakkirlar merosida keltirilgan hikoyalarda, metal-u rivoyatlarda do'stlik va o'rtoqlik, nomus va poklik, insof va adolat, muruvvatlik va haqgo'ylik kabi ijobiy fazilatlarga tovlamachilik, riyokorlik, muttahamlik kabilar qarama-qarshi qo'yiladi.

Ko'pgina hikoyalar zamirida inson o'ziga kerakli xulosalar chiqarib oladi. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu o'git va nasihatlar o'tmishdagi ulug' mutafakkirlar va donishmandlarning tarixiy hikoya va hikmatli so'zlari orqali inson ongiga etkaziladi. Chunonchi donishmandlar hayot tajribalari, nafis didlari, murakkab ruhiy holatlari va bilim darajalariga tayangan holda xulosalar chiqarib chuqur mazmunli hikoyalar bayon etganlar. Bu fikriy kashfiyotlar asrlar davomida insonni ma'naviy go'zal qilib tarbiyalash uchun xizmat qilish bilan birga, o'z fikrini muloxazalarini chuqur va nafis ifodalashga ham o'rgatadi.

Shunisi muhimki, Sharq mutafakkirlari asarlarining mazmunidan kelib chiqadigan fikrlar nafaqat yoshlar tarbiyasi, oila muammolari, balki davlat ahamiyatidagi qator axloqiy-ma'rifiy va sotsial muammolarni, balki davlat ahamiyatida ham hal etishda muhim Irol o'ynaydi.

Donishmand mutafakkirlarimiz komil inson uchun 14-fazilatni egallash muhimligini ta'kidlab o'tishgan. Ular:

- Rioziyat- nafsini tiyish;
- Sukut, ortiqcha va be'mani gaplarni gapirishdan saqlanish;
- Intizom;
- Maqsad- har bir ishdan ko'zlangan maqsad aniq bo'lishi;
- Tejam- iqtisod, yani tejamkorlikka rioya qilish;
- Vaqt va fursatni g'animat bilish;
- Matonat;
- Haqqoniyat- haddan ortiqchalikdan saqlanish;
- Nazokat- kir va ifloslikdan xazar qilish;
- Qalb huzuri, rohat;
- Iffat-odobli, sharm-xayoli, nomusli bo'lish;
- Tavoze, o'zini kamtar tutish;
- Muloyimlik-sabrlilik, ochiq yuz, shirin so'zli bo'lish.

Bunday sifatlar, avvalo, oilada tarkib topadi. Darhaqiqat, bobolarimiz ta'kidlaganidek, oila bu - muqaddas qo'rg'onki, unda ulg'ayib o'sayotgan bolalar ushbu qo'rg'onning qonun-qoidalariga, oila qadriyatlariga amal qilishi, uni asrab-avaylashi, oila mustahkamligiga o'zining munosib hissasini qo'shib bormog'i lozim.

Ulug' mutafakkirlarimiz yoshlarga o'git berar ekan, «odamning tani qanchalik yeyish va ichishga muhtoj bo'lsa, aqli ham odobga shunchalik muhtojdir. Odobsiz odamning xalq orasida hech bir qadr-qimmati yo'q. Odobsiz va tarbiyali bola otasining ayb va kamchiliklariga pardalik bo'lib, ularni yopib, berkitib qoladi, odobsiz bola esa, otasining obro'sini, qadr qimmati, obro'-e'tiborini yo`qqa chiqaradi.

Bolalarim, odobsiz, tarbiyasiz odamlarga yaqinlashmang, ularning yomon xulqlari sizlarga yuqib qolmasin.

Doimo odobli, tarbiyali odamlar bilan ko'rishib suhbatidan bahramand bo'lib, ulardan odob va tarbiyani o'rganing»- deyishgan.

Maktabda va maktabdan tashqari barcha yunalish va to'garaklardagi o'quvchilarning ma'naviy fazilatlari, boy madaniy merosimiz, tarixiy ana'nalarimizga, umuminsoniy qadryatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashi bilan birga ular o`rtasidagi munosabatni ijobiy shakllantirish bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari klub va to'garaklari faoliyatida bu borada o'quvchilar quyidagi bilim va malakalarni egallashlari lozim:

-O'quvchilar Respublikamizning tarixiy va qadimiy yodgorliklariga doimo sayohatlar uyushtiradilar;

- Bunyod etilayotgan ulkan inshootlar, ma'rifiy maskanlar, yurtimizning go'zal tabiati bilan muntazam tanishib boradilar;

-Axloqiylikning oddiy, hayotiy qoidalari bo'lmish kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birin e'zozlash, mehmon kutish va hokazolarni kundalik turmushlariga singdirib boradilar. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida klub va to'garaklar faoliyatida Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim.

O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tarixi, muayyan davrlardagi mavqeyi, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o'rni, mamlakatimizning yorqin istiqboli to'g'risida ishonch beradi. Vatanni sevish uning istiqboli haqida qayg'urish imon-e'tiqod ramzi ekanligi o'qtiladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad- komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

O'qituvchi va tarbiyachilar o'quvchilarga quyidagi maktabdan tashqari ta'limning barcha faoliyatida malaka va bilimlarini singdiradilar:

-ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ahloqiy hislatlar majmui mujassamlashtiriladi;

-jamiyatda o'zligini va iste'dodini har tomonlama namoyon etadi;

-ma'rifiy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallaydi;

-aqlan yetuk, yuksak qobilyatli va salohiyatga ega bo'lgan ma'naviy yuksaklikka intiladi;

-Ahloqan rok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin ijodkor shaxs darajasiga intiluvchi bo'ladi.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yana bir muhim tarbiyaviy qismi amaliy harbiy va texnikaviy to'garaklarga jalb etishdir.¹

Ushbu faoliyatdan maqsad o'quvchilarning ongida Vatan mustaqilligini himoya qilish tuyg'usini va Vatan harbiy kuch qudratiga nisbatan milliy g'ururini shakllantirishdir.

To'garakda Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilim va ko'inkmalarni egallashi lozim:

-Harbiy kuchlarning konsitutsion majburiyatini bilish;

-«Alternativ xizmat haqida qonun» «umum harbiy va harbiy xizmat to'g'rsida qonun» kabi hujjatlarni o'rganishi;

- Turli harbiy musobaqalar, turistik sayohatlar, harbiy o'yinlar, harbiy sport bayramlarida faol ishtirok etishi;

- Harbiy qismlarda o'z burchlarini o'tayotgan yigitlar va harbiy xizmatchilar oliy o'quv yurti talabalari bilan uchrashuvlarda qatnashishlari kerak.

Ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlar ko'pgina ilg'or maktablarning tajribasi yoshlarni oila hayootiga tayyorlash ishining mazamuniga kiradigan jinsiy tarbiya, oilaning tinch-totuv yashashi uchun mas'uliyat hissini shakllantirish ota-onalik vazifalarini bajarishga va oila ho'jaligini oqilona yuritishga o'rgatish masalalariga e'tibor berish zarurligini ko'rsatmoqda.

Sinf rahbarlari o'quvchilarni nikohdan o'tish va oila qurishga tayyorlashda jamiyatning yoshlariga quyadigan talablarini va ularning oilaviy turmushga qay darajada tayyor ekanligini aniq bilishi kerak.

Bunda u o'quvchining egallagan bilim, va ko'nikmasi, insoniy fazilatlari jamiyat talabiga qanchalik javob brishidan kelib chiqib, tarbiyaning vazifalarini belgilaydi. Suhbatlarda, mashg'ulotlarda oila hayotining eng yashirin ichki masalalarini ro'yobga chiqarishga ta'sir etadigan holatni yarata olish uchun sinf rahbari obro'li va yoshlar ishonchiga sazovor bo'lishi zarur. Mashg'ulotlar jonli,

¹ Mavlanova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. "Pedagogika". "O'qituvchi", Toshkent. 2001 yil. 87-b.

ijodiy bo'lsa, unda hayot voqealari, adabiyot, kino, san'at lavhalari ishtirok etsa, o'rgatish, nasihat qilish emas, balki bahslashish, mulohazalar bildirish, fikrlashish, munozara yuritish asosida borsagina foydali bo'ladi.

Sinf rahbari bunda ko'proq ma'ruza, hikoya, suhbat taklif etilgan hurmatli kishilarning chiqishi, sayohat, turli hil hayotda uchrashi mumkin bo'lgan voqealarni sahnalashtirish bilan ularni muhokama etishi, kitobdan amaliy ish va kuzatishdan olingan voqealarni muhokama qilish kabi shakllardan foydalanish mumkin.

Tajriba-sinov ishlari


Malakaviy ishimiz orqali bugungi o'qitish tizimi va unda olib borilayotgan ishlar, ta'lim oldidagi bugungi kun muammolari, ularning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari va talimga oid innovatsion texnologiyalar, ularning ta'limdagi o'rni haqida baxoliqudrat ma'lumot berishga, ularning muammolarini hal etishga urinib ko'rdik. Ta'limda uchragan va uchrashi mumkin bo'lgan pedagogik muammolarni o'z qarashimiz bilan hal etishga urindik, ularning yangi mukammal yo'llarini topishga harakat qildik. Biz o'z fikrlarimizni isbotlash uchun ma'lum tajribalar olib bordik. Bu tajribalarimiz, asosan, o'zimiz faoliyat ko'rsatayotgan maktablardan oldik. Dastlab biz o'ylagan muammolarni kuzatdik, ularni kamchilik deb o'ylaganlarimizga ishonch hosil qilish uchun darslarni ko'rdik. Shu soha mutaxassislarinig fikrlariga quloq tutdik, ulardan o'rgandik. Shu maqsadda biz ishimizni tajribadan boshladik. Tajriba uchun o'zimiz mehnat qilayotgan va amaliyot o'tkazayotgan Namangan shahridagi 27- umumiy o'rta ta'lim maktabi asosida tajriba o'tkazdik. Biz ishni dastlab mavzu "1 – sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari" haqida o'quvchilarga tushuncha berishdan boshlandik. Ularning tushunchalari boyitildi. Bu haqda savol-javoblar o'tkazildi. Ayrim o'qituvchilarning bu xaqdagi fikr va mulohazalari ham atroflicha tahlil qilib o'tildi. Maktabda odobnoma darslarining holatlari chuqur tahlil qilib kuzatildi. Ayrim darslar kuzatildi va bu haqda fikrlar bildirildi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilaridan tajriba-sinov uchun 1-A va 1-B sinflari tanlab olindi, muammollari keng tushuntirildi.

Dastlab ulardan nazorat ishi olishdan boshladik. Olingan nazorat ishi Undagi natija quyidagicha bo'ldi:

TAJRIBADAN OLDINGI NATIJA

1^{"A"}-sinf tajriba sinf

1^{"B"}-sinf nazorat sinf



Tajriba sinf	Nazorat sinf
5 baho – 4 ta 12%	5 baho – 4 ta 14%
4 baho – 18 ta 56%	4 baho – 16 ta 53%
3 baho – 8 ta 25%	3 baho – 9 ta 30%
2 baho – 2 ta 6%	2 baho – 1 ta 3%
Jami o'quvchi soni 32	Jami o'quvchi soni 30

$$\begin{aligned}
 32 &= 100\% \\
 32 - x & \\
 X &= (22 \cdot 100) / 32 \\
 X &= 68,8
 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
 30 &= 100\% \\
 30 - x & \\
 X &= (20 \cdot 100) / 30 \\
 X &= 66,6
 \end{aligned}$$

Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, mavzu haqida ular umumiy tushunchaga ega ekanlar. Shundan so'ng biz mavzu haqida tajriba guruximizda ish boshladik. Tadbir rejalarini tuzib chiqdik. Qilinadigan ishlarni belgilab oldik. Ish rejalarini ishlab chiqdik. Shu reja asosida mukammal ish olib bordik. Avval darslarni kuzatdik qilinadigan ishlarni belgiladik. Ayrimalaridan voz kechildi. o'quvchilarni zeriktiradigan o'rinlar olib tashlandi. Darslar asosan savol-javob tarzda o'tkazila boshlandi. Savollar quyidagicha tuzildi.

Odobnoma darslari sizni qiziqtiradimi?

Odobnoma deganda nimani tushunasiz?

Odob deganda nimani tushunasiz?

Odobnoma soatlari sizni qiziqtiradimi?

Odobnoma darslarini qanday turlarini xoxlaysiz?

Uyda ko'proq qaysi vazifalarni bajarishga qiziqasiz?

O'zingiz ham qo'shimcha vazifalar qilasizmi?

Badiiy adabiyotlardan foydalanasizmi?

Erkin fikrlashingizga o'qituvchi to'sqinlik qilmaydimi?

Test darslaridan qoniqasizmi?

Savollar asosida gapirib berish sizga qulaymi?

Musobaqa darslari sizni qiziqtiradimi?

Siyosat darslarini ham yoqtirasizmi?

Ifodali o'qishni istaysizmi?

Siz uchun qanday darslar qiziqarli bo'ladi?

Odobnoma darslari qanday bo'lishini xoxlaysiz?

Bu kabi savollar kelajakda o'tkaziladigan darslarni qanday o'qish kerakligini belgilab beradi. Shu sababli biz ishlarimizni, asosan, o'quvchilarning takliflaridan kelib chiqib belgiladik,

Avval biz o'quvchilarni darslik bilan yaqindan tanishtirib oldik. Bilimlari to'g'risida fikr-mulohazalarimizni bildirdik. O'quvchilarning fikrlarini ham oldik. Ularni o'rgandik, saraladik. Shular asosida darslarni uyushtirdik. Bir necha na'munaviy darslarni tashkil etdik va bu darslarda "Ma'naviyat asoslari",

“Ma’naviy qadryatlar va o’zlikni anglash”, “Ma’naviyat millat nishoni”, “Turkiston umumiy uyimiz”, “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch” kitoblaridan foydalandik.


Tajriba sinflarida yangi pedtexnologiya asosida mashg’ulotlar olib borildi. Musobaqa darslari o’tkazildi. Darslarda o’quvchilar rag’batlantirildi. Biz darslarda asosan o’quvchilarning rag’batlantirishga e’tibor berdik. Bulardan tashqari uyga berilgan vazifalarga ham alohida e’tibor qaratdik. Chunki vazifalar orqali o’quvchilarning tushunganliklarini ochiq bilish mumkin. Masalan, darslardagi ta’sirlangan o’rinlarni topib kelish. Agar o’quvchi darsdan ta’sirlanmasa, darsni tushundi, deb o’ylamaslik kerak. Shu sababli olingan nazorat ishlarida tajriba guruxlarida yuqori ekanliklarini ko’rsatdi:

TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

1^{“A”}-sinf tajriba sinf

1^{“B”}-sinf nazorat sinf

Tajriba sinf	Nazorat sinf
5 baho – 8 ta 25%	5 baho – 4 ta 14%
4 baho – 19 ta 59%	4 baho – 17 ta 56%
3 baho – 5ta 16 %	3 baho – 8 ta 27 %
2 baho – 0 ta 0%	2 baho – 1 ta 3%
Jami o’quvchi soni 32	Jami o’quvchi soni 30



32=100 %	30=100 %
32-x	30-x
$X=(27*100)/32$	$X=(21*100)/30$
X=84,0	X=70,0

Olingan nazorat ishlari atroflicha tahlil qilindi. Ularning sabablari maxsus darslarda o'rganildi. Biz tatqiq etayotgan mavzuning dolzarb ekanligi yana bir bor ma'qullandi. O'tkazilgan tajribalarda biz shoshilmadik. O'z fikrlarimizni aniq dalillarga asoslangan holda ilmiy tatqiq etishga urindik.

Bugun ta'limda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish muhim bo'lib turgan ekan, biz asosiy e'tiborni ta'limning shu o'rinlariga qaratdik. Uning eng qulay uslublarini yaratishga erishdik. Bunda ta'limdagi eng ilg'or texnologiyalardan foydalandik. Ularni ish jarayonida sinab ko'rdik. eng mukammallarini tanlab oldik, o'qitish jarayoniga tatbiq etdik.

Umuman olganda, o'tkazgan tajribalarimizdan ma'lumki, bugungi ta'limda

Maktab o'quvchilari odobnoma darslarining alohida shart-sharoitlarini yaratish va uyushtirish muhim bo'lib turibdi. Biz kechiktirmay bu darslar ko'lamini kengaytirishimiz, darslarda biz tatqiq etgan yangiliklarni joriy etish kerak, deb o'ylaymiz. Ana shunda bugungi ta'limda kichik bo'lsa ham yangilik yaratgan bo'lamiz. Lekin biz tajribalarimizda kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lishimiz ham mumkin. Shu sababli biz baholash hay'atidan uzr suraymiz.

X u l o s a

Bugun biz o'qituvchilar yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash yo'lida zahmat chekishimiz kerak. O'sib kelayotgan yoshlar yurt uchun kurashuvchi, o'z Vatanini ko'z qorachig'iday asrovchi, kerak bo'lsa jon fido qiluvchi insonga aylansin. Bunda biz pedagoglarning ham o'z o'rni bor.

Bola dunyoga kelibdiki, go'zallikka intilib yashaydi. Uni ko'rishga, undan zavqlanishga intiladi. Shu sababli men ushbu ishimda maktab o'quvchilariga odobnoma darslarini yangi pedagogik texnologiya orqali, uni darslarda o'rganish davomida o'quvchida yurtga egalik hissini tarbiyalashni oldimizga maqsad qilgan edik. Uni yoritish davomida bularga qisman bo'lsa ham erishdik, deb o'ylaymiz. ma'naviy madaniyatni rivojlantirga bo'lgan munosabatni yana orttirishga harakat qildik. O'quvchilarni ma'naviyatli bo'lishga, o'z madaniyatini rivojlantirishga o'rgatdik. O'quvchida shu hislarni amalga oshirsagina unda ma'naviy madaniyatga bo'lgan mehri yana ortadi. O'z ma'naviy madaniyatga mehr - yurtga bo'lgan mehrdir.

Bugungi ta'limda biz avval maqsadni belgilab, so'ng natija sari intilishimiz kerak. Ana shundagina biz oldinga siljigan bo'lamiz. Ta'lim kundan kunga yangilanib bormoqda. Biz ba'zan rivojlanish oldida kuchimiz yetmaganday bo'lib qolyapti. Sababi dunyo ta'limi kundan kun kosmos tezligida rivojlanib bormoqda. Biz, o'qituvchilar, ozgina o'z ustimizda ishlamasak, bu sohada orqada qolib ketishimiz aniq. Gar shunday ekan, ta'lim yangiliklari bilan bir qatorda odimlashimiz kerak. Ana shunda bu sohada buyuk o'zgarishlar yasay olamiz.

Biz tadqiq qilgan ishimizda yuqoridagi muammolarni hal etishga urindik, Uning bugungi yangiliklarini tushungan holda tatqiq etishga urinib ko'rdik. Mavzuni yangi pedagogik texnologiya talablariga suyanan holda echishga urindik. Har bir mavzuga aloqador muammolarni ilmiy manbalarga tayangan holda hal etishga erishdik. Muammolarni hal etishda Respublikamizning eng taniqli mutaxassislarning fikrlariga suyandik. Bulardan tashqari, mavzu asosidagi takliflarimizni tuman, viloyat, maktablardagi keng tajribaga suyanib hal etishga urindik. Muammolarni keng tajribaga suyanib echishga harakat qildik.

Ishni yoritishda texnika vositalariga tayangan holda ish tutdik. Maktablardagi mavjud texnika vositalaridan unumli foydalandik. o'qitishning yangi texnikaviy ko'rinishlarini joriy etdik. Internet sahifalaridan mavjud mavzuga oid muammolariga bag'ishlangan saydlarini urgandik. Ular bilan tanishib chiqdik. Mavzuga bog'liqlarini ishimizga olib kirdik.

Shuningdek, ishni yoritishda o'quvchilarning mustaqil ishlariga e'tibor berdik. Darslarda o'quvchilarning mustaqil ishlarining yangi ko'rinishlarini tashkil etdik. Ularni guruhlarga bo'lib, har birlari bilan yangi mavzular ustida ish olib bordik. Ularni taqdimotllarini uyushtirdik. eng ilg'or guruxlarni rag'batlantirdik. Mustaqil ishlashning yangi ko'rinishlarini joriy etdik. Bular biz tatqiq etayotgan mavzuni ochishda bizga yordam berdi.

Ishni yoritishda o'quvchilarni kutubxona bilan ishlashga o'rgatdik. Bularni biz darslarda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish uslublarini qo'llash orqali erishdik. Ayrim tajribalarimiz ko'pgina o'quvchilarni maktab kutubxonasi bilan yaqinlashtirdi. O'quvchilar darslik bilan ishlashga yana ham qiziqdi. Bulardan tashqari uy vazifalarini bajarishning yangi yo'tlarini izlab topdik. Ularni mavzuni yoritishda qo'llagan uslublarimiz yordam berdi. Masalan, uy vazifalarini bajarish konkurslarini o'tkazdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ijtimoiy - siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: “Sharq“. 1999 y.
3. Karimov. I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. 3 yanvar 2011 y.
4. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: 2009 yil mart
5. Karimov I.A. “Milliy mafkuramiz, millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008 y.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T.: 1997 y.
8. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi mavzusidagi ma'ruzasi. “O'zbekiston ovozi” gazetasi. 220-son. 1-bet. T.: 2010 y.
9. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining 2010 -yil 29- yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” ma'ruzasidan.
10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -T.: 1997.
11. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. -T.: 1997.
12. O'zbekiston Respublikasining Milliy dasturi. T.: 1998.
13. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son .
14. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son

II. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:

15. Q. Abdullayeva va b. . "Odobnoma" 2-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010 yil.
16. G'apparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Alifbe .(Savod .) ” T .: “O'qituvchi ”1999 yil
17. Safarova R . va boshqalar “Alifbe ” T ., 2006 .
18. Gulomov M. Yozuv daftari. T., Ma'naviyat. 2006
19. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: Ma'naviyat. 2003.
20. G'afforova T. G'ulomova X. Eshturdieva G. 1- sinfda savod o'rgatish. T.: Sharq. 1996.
21. G'apparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: O'qituvchi .1999.
22. Abdullaeva K. va boshqalar . Ona tili . T.: O'qituvchi .1999.
23. G'apparova T., Shodmonov E., Gulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: Sharq. 2005.
24. G'ulomova X. G'afforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2003.
25. Qosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.: 2005.
26. Cho'lpon. 2005.
27. Qosimova K. Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho'lpon. 2004.
28. Fuzailov S. , Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2005.
29. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2005.
30. Ikromova R. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: O'qituvchi . 2007
31. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.: O'qituvchi . 2003

32. Q.Abdullayeva va boshqalar. “O’qish kitobi” 2-sinf uchun darslik. “O’qituvchi” Toshkent. 2008 yil.
33. Q.Abdullayeva va boshqalar. “O’qish kitobi” 2-sinf uchun darslik. “O’qituvchi” Toshkent. 2008 yil.
34. B. Ma’qulova S.Matchon. “Kitobim oftobim” Sinfdan tashqari o’qish kitobi 2-sinf uchun. “O’qituvchi” Toshkent. 2000 yil.
35. M.Umarova, SH. Hakimova “O’qish kitobi” 3-sinf uchun darslik. “Cho’lpon” Toshkent. 2008 yil.
36. O.Hasanboyeva. ”Odobnoma” 1-sinf uchun darslik. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent. 2010 yil.
37. O.Hasanboyeva. va b. ”Odobnoma” 3-sinf uchun darslik. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent. 2010 yil.

MUNDARIJA

1	KIRISH	2
2	1-bob. Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish masalalari	18
3	1.1. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatishning ahamiyati.....	18
4	1.2. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatish uslublari.....	25
5	2-bob. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rgatishni tashkil etish masalalari	35
6	2.2. 1-sinf odobnoma darslarida oila haqidagi asarlarni o'rganish malakasini shakllantirish.....	35
7	2.3. Odobnoma darslarida Prezident Islom Karimov asarlaridan foydalanish uslublari.....	42
8	Tajriba-sinov ishlari	49
9	Xulosa va tavsiyalar	56
10	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	58